

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIKULOVA SHAXNOZA BOYMUXAMMATOVNA

O‘ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI TARIXI (1930-1990 yy.)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

URGANCH – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of dissertation of Doctor of sciences (DSc)

Xoliqulova Shaxnoza Boymuxammatovna

О‘zbekistonda kimyo sanoati tarixi (1930-1990 yy.).....3

Холикулова Шахноза Боймухамматовна

История химической промышленности в Узбекистане (1930-1990 гг.).....33

Xolikulova Shaxnoza Boymuxammatovna

History of the chemical industry in Uzbekistan (1930-1990 yy).....67

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works71

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIKULOVA SHAXNOZA BOYMUXAMMATOVNA

O‘ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI TARIXI (1930-1990 yy.)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

URGANCH – 2026

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/Tar554 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.urdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Musayev Nuriddin Umrzakovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Narmanov Feruz Asfandiyorovich
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Raximova Gulchexra Sobirjonovna
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Raupov Xolmamat Rashidovich
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.06.01. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "12" sentabr soat 10 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16.) e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1041 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16; e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "29" avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil "29" avgust dagi 18 raqamli reestr bayonnomasi.)



U.I. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

D.R. Atamuradova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

X.X. Matyakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zaruriyati. Kimyo sanoati jahon miqyosida ham ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini anglash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi, aholi sonining ortishi va turmush darajasining yuksalishi natijasida kimyo mahsulotlariga xomashyo, energiya manbalari, dori vositalari, oziq-ovqat qo‘shimchalari, qishloq xo‘jaligi uchun o‘g‘itlar va turli materiallarga bo‘lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Shu bois kimyo fanining tarixi va uning sanoat bilan bog‘liq rivojlanish bosqichlarini chuqur o‘rganish nafaqat ilmiy qiziqishni, balki amaliyotdagi ehtiyojni ham aks ettiradi. Bu sohaning tarixi orqali ilmiy kashfiyotlar va sanoat yutuqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik ta‘sirini tahlil qilish imkoni yaratiladi.

Jahonning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarida Markaziy Osiyo respublikalarida zamonaviy kimyo sanoatining shakllanishi, kimyo sanoat korxonalarini loyihalashtirish va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish jarayonlari, kadrlar masalalari, sovet ittifoqidagi industriallashtirish va kollektivlashtirish jarayonlarining sanoat sohasi, xususan kimyo sanoati korxonalari faoliyatiga ta‘siri, mineral o‘g‘itlar, polimer materiallar va maishiy kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha tarmoq korxonalarining rivojlanishi, kimyo sanoat korxonalarining atrof-muhit va ekologik holatga ta‘siri hamda ekologik va inson omili bilan bog‘liq salbiy oqibatlari masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, kimyo sanoat korxonalarining atrof-muhitga zararli ta‘sirini kamaytirish, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini diversifikatsiya qilish, hududlardagi demografik va tabiiy sharoitlardan kelib chiqqan holda kimyo sanoati tarmoqlarini tartibga solish, kimyo sanoatini rivojlantirish borasida yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish hamda kimyo sanoati korxonalarini davr talabiga mos holda qayta rejalashtirish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda kimyo sanoati milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralgan holda sohani modernizatsiya qilish, xomashyo bazasini kengaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Zero, “iqtisodiyotni raqobatdosh qilish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, sanoat tarmoqlarini texnologik transformatsiya qilish mutlaqo yangi yondashuvlarni talab etmoqda”¹. Bu esa o‘z navbatida kimyo sanoatining barcha yo‘nalishlarini uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga mustahkam zamin yaratish, sohani transformatsiya qilish, ilg‘or xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda jadallashtirish imkonini beradi. Mazkur jarayonda kimyo sanoatining shakllanishi va uning sanoatdagi rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, tarixiy tajribalarni tahlil qilish kelgusidagi ilmiy siyosat, texnologik yangilanish va innovatsion yo‘nalishlarni belgilashda mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2025 йил 26 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” Farmoni, 2017-yilning 23-avgustdagi PQ-3236-son “Kimyo sanoati rivojlanishining 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-son “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-388-son “Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa **me‘yoriy** hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². 1873–2021-yillarda Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotining rivojlanishi tarixiga oid tadqiqotlar dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO), Jorj Vashington universiteti qoshidagi Markaziy Osiyoni o‘rganish Dasturi (The Central Asia Program (CAP) at George Washington University, AQSH), London universiteti “Sharq va afrikashunoslik tadqiqotlari maktabi (SOAS University of London, Buyuk Britaniya), Indiana Blumington universiteti (Indiana University Bloomington), AQSH); D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti, (RXTU im. D.I. Mendeleyeva, Rossiya Federatsiyasi); Tomsk politexnika universiteti (Tomsk, Rossiya Federatsiyasi) va boshqa ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilmoqda.

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida 1930–1990-yillarda O‘zbekiston kimyo sanoatining tarixiga oid bir qator tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalar olingan: Sovet ittifoqida kimyo sanoati yirik hajmda rivojlangan bo‘lsa-da, asosan bazaviy mahsulotlarga yo‘nalgan va markazlashgan rejali iqtisodiyotga qat’iy bog‘liq holda shakllanganligi asoslangan (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni Rivojlantirish Tashkiloti – UNIDO); markazlashgan rejalashtirish sharoitida resurslar iqtisodiy samaradorlikdan ko‘ra ma‘muriy va strategik maqsadlar asosida joylashtirilishi sanoatda hududiy va tarmoqlararo nomutanosibliklarni yuzaga keltirganligi isbotlangan (Indiana University Bloomington), AQSH); Sovet davrida O‘zbekistonda davlat siyosati orqali qishloq xo‘jaligida yaratilgan ortiqcha resurslar markazlashtirilib, og‘ir sanoatga yo‘naltirilganligi ochib berilgan (London universiteti “Sharq va afrikashunoslik tadqiqotlari maktabi, Buyuk Britaniya), sanoat

² **Xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi** <https://www.unido.org/publications/ot/9638536>, <https://publish.iupress.indiana.edu/projects/soviet-strategy-for-economic-growth>, <https://www.soas.ac.uk/about/lorena-lombardozi>, https://www.muctr.ru/university/about/history/vov/index.php?sphrase_id=1317235, <https://earchive.tpu.ru/> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

mahsulotlarini ishlab chiqarishda agrar sohaga mo'ljallangan biryuqqlamalikdan voz kechgan holda eksportni diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy o'sish istiqbollari ko'rsatib berilgan (The Central Asia Program (CAP) at George Washington University, AQSH); Ikkinchi jahon urushi yillarida Qo'qondagi kimyo sanoati korxonalari front ehtiyojlariga moslashtirilib, ilmiy ishlanmalar va ishlab chiqarish jarayonlari harbiy hamda sanoat ta'minotini uzluksiz qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligi ochib berilgan (D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti, Rossiya Federatsiyasi); Tomsk politexnika universitetining kimyoviy texnologiyalar fakulteti Sovet davrida O'zbekistondagi kimyo gigantlari (ayniqsa, Chirchiq elektrokimyo kombinati) uchun ilmiy yechimlar ishlab chiqqanligi yoritilgan (Tomsk politexnika universiteti, Rossiya Federatsiyasi).

Bugungi kunda dunyoning yirik ilmiy va strategik tadqiqot markazlari tomonidan 1930–1990-yillarda O'zbekiston kimyo sanoatining tarixini o'rganishga doir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Markaziy Osiyo respublikalarida zamonaviy kimyo sanoatining shakllanishi, kimyo sanoat korxonalarini loyihalashtirish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish jarayonlari, kadrlar masalalari, sovet ittifoqidagi industrialashtirish va kollektivlashtirish jarayonlarining sanoat sohasi, xususan kimyo sanoati korxonalari faoliyatiga ta'siri, mineral o'g'itlar, polimer materiallar va maishiy kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha tarmoq korxonalarining rivojlanishi, kimyo sanoat korxonalarining atrof-muhit va ekologik holatga ta'siri hamda ekologik va inson omili bilan bog'liq salbiy oqibatlar.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi³. Sanoatlashuv tarixi, jumladan, kimyo sanoati tarixi ham tadqiqotchilar diqqatini doimo o'ziga jalb qilib kelgan. Bu sohada tarixchi, kimyogar va boshqa ijtimoiy-gumanitar fan vakillari tomonidan kimyo sanoatining rivojlanish jarayonlarining turli jihatlarini yorituvchi ko'plab monografiyalar, ilmiy va ommabop to'plamlar hamda maqolalar nashr etilgan. Tadqiq etilayotgan mavzuga doir adabiyotlarni davriy-xronologik jihatdan quyidagi uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Sovet hokimiyati davrida nashr etilgan adabiyotlar (1930–1991- yillar).
2. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar.
3. Xorijiy mualliflar tomonidan yozilgan asarlar.

Birinchi guruhga kiritilgan sovet davri tadqiqotlarida respublika kimyo sanoati tarixini aksariyat ijobiy tomonlari bo'rttirilib, mavjud muammolar ildizi va mohiyati sovet hukumati hamda kommunistik partiya manfaatlaridan kelib chiqib o'rganilgan. Sovet tuzumining buyuk sanoat siyosati yoqlanib, kommunistik mafkura g'oyalari zo'r berib targ'ib qilingan. Bunday tadqiqotlar orasida tarixchilar, iqtisodchilar va soha xodimlarining asarlari ko'plab uchraydi. Aynan O'zbekiston SSR kimyo sanoatiga oid maqolalarda bo'lsa, markazning rejalashtirish siyosatini maqtash, partiya qarorlari va rejalarini ta'riflash holatlarini ko'rish mumkin. Xolis va tanqidiy tahlil qilinmagan.

Ikkinchi guruhga kiruvchi adabiyotlar mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va nashr etilgan adabiyotlardan iborat. Mustaqillik yillari e'lon qilingan ilmiy asarlarda O'zbekiston iqtisodiyoti SSSR xalq xo'jaligining tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanish yo'nalishlari markaziy, partiya, davlat va xo'jalik

³ Dissertatsiyaning I.2.Mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi paragrafida batafsil yoritilgan.

organlarining direktiv ko'rsatmalarida belgilab berilgani yoritilgan. Shuningdek, ushbu omillar ko'p jihatdan respublika iqtisodining inqiroziga hamda ekstensiv rivojiga, xomashyo yetkazib berishga yo'naltirilganiga sabab bo'lgani asoslab berilgan.

Uchinchi guruhga xorijiy adabiyotlar kiritildi. Ushbu mavzu dolzarbligi sababli turli davrlarda Sovet ittifoqi miqyosidagi davlatlarda va MDH hududidagi mamlakatlar miqyosida ham o'rganilgan. Ayniqsa, G'arb olimlari tadqiqotlari ham muhim o'ringa ega bo'lib, ularda ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan sovet davri iqtisodiy siyosatida respublikalar sanoatini bir-biriga bevosita bog'lab qo'yish, kadrlar masalasidagi noto'g'ri siyosat, aholining ijtimoiy ahvoli va muammolari ochib berilgan.

Ushbu tadqiqotlar natijalari 1930–1990-yillarda O'zbekiston kimyo sanoatining tarixining ayrim jihatlarini qamrab olgani va kompleks tahlilga tortilmaganligini ko'rsatadi. Bu esa dissertatsiya mavzusining alohida tadqiqot ishi doirasida dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Navoiy davlat universitining "Ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va ekologik barqaror taraqqiyot strategiyasida innovatsion texnologiyalarga asoslangan rivojlanishning ilmiy-amaliy mexanizmlarini tadqiq etish" ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1930–1990-yillarda O'zbekiston kimyo sanoatining tarixini ochib berishdan iborat

Tadqiqotning vazifalari:

1930–1940-yillarda O'zbekistonda kimyo sanoati ishlab chiqarilishi holatini o'rganish;

O'zbekistonda kimyo fani va tadqiqot yo'nalishlarining sanoatni rivojlantirishga jalb etilishini yoritish;

O'zbekistonda ilk kimyo sanoati korxonalarining paydo bo'lishi va ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish;

1950–1980-yillarda O'zbekiston kimyo sanoati rivojlantirishdan maqsadlarni yoritish;

kimyo sanoat korxonalarining modernizatsiya qilinishi, kamchiliklari va yagona xalq xo'jaligidagi hissasini tahlil etish;

sanoat korxonalarining shaharsozlik madaniyatidagi o'rni, yutuq va kamchiliklarini tahlilini yoritish;

kimyo sanoati ishlab chiqarish jarayonlariga siyosiy-ijtimoiy ta'sir kuchayishining sabablarini o'rganish;

kimyo sanoati korxonalarini kadrlar bilan ta'minlash: maummo va yechimlarni ko'rish;

kimyo sanoati rivojlanishiga to'siq bo'lgan siyosiy, ijtimoiy omillarni tahlil qilish; sanoat korxonalarining ekologik muhitga ta'siri muammolarni tahlil qilish ;

O'zbekiston kimyo sanoatini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini 1930–1990-yillardagi O'zbekiston kimyo sanoati tarixi tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini 1930–1990-yillarda O‘zbekistonning kimyo sanoati korxonalari Ittifoq manfaatlariga mos ravishda joylashtirilishi, bir tomonlama sanoatlashtirish va yagona xalq xo‘jaligi kompleksida respublika kimyo sanoatining asosan paxtachilikni rivojlantirishni ko‘zlab ixtisoslashtirilishi, kimyo sanoatining boshqa tarmoqlarning vujudga kelishi jarayonlarida yuzaga kelgan muammo va oqibatlari bilan bog‘liq jihatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, muammoviy-davriy, statistik va tizimli tahlil kabi usullar qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sovet hokimiyatining mustamlakachilik siyosatiga asoslangan markazlashtirilgan va ma‘muriy-buyruqbozlik boshqaruvi doirasida XX asrning 30-yillarida O‘zbekiston SSRdagi kimyo sanoat ishlab chiqarishi rejalashtirilishi Markaz tomonidan amalga oshirilib, qishloq xo‘jaligi va paxtachilikni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi asoslangan;

Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston SSSR miqyosidagi kimyogarlarning tadqiqotlari va kimyo korxonalarining qurilishi mudofaa maqsadlariga mos holda rejalashtirilishi ortidan korxonalarining joylashuv hududi geosiyosiy maqsadlarda tanlanib, xalq xo‘jaligi va mudofaa ikkinchi jahon urushiga shayligi ko‘zlanishi, asosiy sanoat obyektlarining aholi zich hududlarga to‘planib qolishiga olib kelganligi dalillangan;

1950–80-yillarga kelib, butun sanoat ishlab chiqarish va qurilishda sotsialistik musobaqa sun‘iy avj oldirilishi natijasida sanoat korxonalari tugal loyahasiz qurilishi va ta‘mirlashdagi xatoliklar va iqtisodiy islohotlarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar sabab kimyo sanoati 1980-yillarda tanazzul yoqasiga kelib qolganligi asoslab berilgan;

Kimyo sanoati korxonalarining faoliyatiga partiya va ma‘muriy organlarning asossiz aralashuvlari sabab kadrlar muammosi kelib chiqishi hisobotlarda ularga yaratilgan sharoitlar yuksak darajaligi aytilsa-da, aslida turar joy, maktab va bog‘chalar yetishmasligi sababli har yili ko‘plab kadrlarning korxonalarda ish tashlashga majbur bo‘lishgani, bu esa sohada doimiy ravishda kadrlar yetishmasligi muammolarini yuzaga keltirganligi ochib berilgan;

kimyo sanoati korxonalar qurilishini minimal xarajatlar asosida tashkil etishga ustuvor ahamiyat berilib, loyihalash va joylashtirish jarayonlarida ekologik talablar, sanitar-gigiyenik me‘yorlar hamda uzoq muddatli barqarorlik omillarining yetarlicha inobatga olinmasligi 1980- yillarning oxiriga kelib atmosfera, suv va tuproq ifloslanishi, bioxilma-xillikning qisqarishi kabi muammolar tizimli tus olib, ayrim hududlarda ekologik muvozanat buzilishiga va umumiy ekologik inqiroz jarayonlarining chuqurlashuviga olib kelganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tarix fanida tan olingan uslub va fanlararo yondashuvlar asosida XX asr ikkinchi yarmida O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergan ziddiyatli muammolarni tadqiq qilishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan nazariy-uslubiy jihatlar aniqlangan;

O‘zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining mazkur davrga oid ilmiy adabiyot va manbalarining umumiy jihatlarini tahlil qilish bilan birga, tarixiy tafakkur

hamda milliy g'ururning shakllanishida muhim o'rin tutgan o'quv adabiyotlarni takomillashtirish, muammoning qo'yilishi, yechimi va talabalarga yetkazib berish sifatini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilgani, bir necha turdagi adabiyotlardan foydalanilgani, bevosita mavzuga tegishli rasmiy hujjatlar, sovet idoralari va kommunistik partiya organlarining o'sha davr iqtisodiyotiga oid turli qonunlari va qarorlari, respublika arxiv hujjatlari va birlamchi manbalarga asoslanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonning sovet davri tarixi, ayniqsa, kollektivlashtirish va industrilashtirish jarayonlariga oid metodik yondashuvlar hamda iqtisodiy munosabatlar bo'yicha nazariy xulosalarni takomillashtirishda foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Oliy ta'lim muassasalarida sovet davrida O'zbekistonda kimyo sanoati tarixi bo'yicha maxsus kurslar ishlab chiqilishi, tegishli darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilishi hamda mavzuga doir maqsadli davlat dasturlarini bajarishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 1930–1990-yillarda O'zbekistonda kimyo sanoati tarixini tadqiq etilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

“O'zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Ekspeditsiya” ko'rsatuvining ssenariysini ishlab chiqishda fodalaniqlan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Ma'rifat” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 15-33/373 son 29.05.2025). Natijalarning qo'llanilishi teletomoshabinlarda Navoiyazot va Navoiy elektrokimyo korxonasiga asos solinish tarixi ushbu korxonaning hudud va mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga ta'siri haqidagi tasavvurlarini kengayishiga xizmat qilgan;

O'zbekiston Respublikasi “Jonli tabiat” jamoat birlashmasining №82/25.12 sonli (23.12.2025y) ma'lumotnomasiga asosan birlashmaning Markaziy kengashida dissertatsiya ishining natijalari muhokamadan o'tkazildi. Respublikamizda 1930–1990-yillar mobaynida qurilgan ayrim kimyo korxonalari loyihasida ekologiya, tabiatni asrash va inson omili hisobga olinmaganligi ochiqqlangan. Ayrim korxonalarning loyihasida yuqoridagi omillar hisobga olingan bo'lsa-da, qurilish jarayonida qurilish mahsulotlarining yetishmasligi va bu jarayonning tezlashtirib bajarishga bo'lgan chaqiriqlar loyiha talablarini amalga oshirishga to'sqinlik qilgan. Tadqiqot ishi O'zbekiston kimyo korxonalarining 1930–1990-yillar tarixini o'rganilmagan ekologik yutuq va kamchiliklari sahifalarini yoritishga xizmat qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi “Qatog'on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyining №314 sonli (25.12.2025 yil) berilgan ma'lumotnomasiga asosan tadqiqot ishida 1937–1938-yillarda butun Sovet mamlakati hududida sodir etilgan mudhish “Katta qirg'in”da O'zbekistonda nafaqat taraqqiyparvarlar, siyosatdonlar, ulomolar va tadbirkor boylar, balki boshqa soha vakillarining: muhandislar, xizmatchilar, quruvchilar, oddiy ishchilar sinfi ham qatog'onga uchragani arxiv hujjatlari va birlamchi manbalar asosida isbotqlangan. Ayniqsa, 1937-

yilda Chirchiqqurilishning xodimlari qatag'on qilinishi bosh muhandis D.P.Rozitning ayanchli taqdiri misolida ochib berilgan;

Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondining №01-45 sonli (14-05-2026) ma'lumotnomasiga asosan dissertatsiya ishida tadqiqotchi Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston SSSR miqyosidagi kimyogarlarning tadqiqotlari va kimyo korxonalarining qurilishi mudofaa maqsadlariga mos holda rejalashtirilishi ortidan korxonalarning joylashuv hududi geosiyosiy maqsadlarda tanlanib, xalq xo'jaligi va mudofaaning ikkinchi jahon urushiga shayligi ko'zlanishi, asosiy sanoat obyektlarining aholi zich hududlarga to'planib qolishiga olib kelganligi dalillangan;

1950–80-yillarga kelib, butun sanoat ishlab chiqarish va qurilishda sotsialistik musobaqa sun'iy avj oldirilishi natijasida sanoat korxonalari tugal loyihasiz qurilishi va ta'mirlashdagi xatoliklar va iqtisodiy islohotlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabab kimyo sanoati 1980-yillarda tanazzul yoqasiga kelib qolganligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shuningdek, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, 4 ta bob, 11 paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat Dissertatsiyaning umumiy hajmi 289 varaqni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligiga asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligiga asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mavzuning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Kimyo sanoati tarixi mamlakat ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti va sanoat siyosati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali fanlararo yo‘nalish ekanligi tahlil etilgan. Mavzudagi nazariy masalalarni o‘rganish nafaqat kimyo sanoati tarixi uchun, balki fan, texnologiya va iqtisodiy tizimlar evolyutsiyasini anglash uchun ham muhim ahamiyatga egaligi ta‘kidlangan.

Darhaqiqat, sanoatni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari XIX–XX asrlardagi iqtisodiy tarixning rivojlanishi bilan bog‘liq. Dastlabki tadqiqotlar G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi sanoat inqilobi va sanoatlashtirish jarayonlarini tahlil etishga qaratilgan edi. David Landesning asarlari bu sohaga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lib, ular da sanoatlashtirish texnologik innovatsiyalar, madaniy omillar va tadbirkorlik faolligining uyg‘unligi orqali tahlil qilingan. Landesning ta‘kidlashicha, sanoat rivojlanishi sur‘atlaridagi tafovutlar nafaqat iqtisodiy resurslar, balki jamiyatning madaniy qarashlari bilan ham shartlangandir⁴. XX asr o‘rtalariga kelib tahlilning yanada murakkab modellariga o‘tildi. Bunda sanoat rivojlanishini tashkiliy va boshqaruv tuzilmalari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishni taklif etgan Alfred Chandlerning tadqiqotlari muhim rol o‘ynadi. Uning konsepsiyasida yirik korporatsiya ishlab chiqarish, taqsimot va ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirishni ta‘minlovchi sanoat tizimining asosiy unsuri sifatida namoyon bo‘ladi⁵. Bu yondashuv, ayniqsa, kimyo sanoatini tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega, zero, bu yerda tarmoq taraqqiyoti yirik korporativ tuzilmalar faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Peter Morrisning asarlarida ko‘rsatilishicha, XIX–XX asrlarda kimyo sanoatining shakllanishi laboratoriya ilmi, kasbiy hamjamiyatlar va ixtisoslashtirilgan tadqiqot institutlarining vujudga kelishi bilan birga kechgan⁶. Bu ayniqsa, xomashyo va texnologiyalarning global ta‘minot zanjirlariga bog‘liq bo‘lgan kimyo sanoati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Sovet davrida sanoat tarixi bo‘yicha yondashuvlar boshqa yo‘nalishlar kabi mafkuraviy nazorat va markscha-lenincha metodologiya hukmronligi sharoitida shakllangan o‘ziga xos ilmiy an‘ana hisoblanadi. Sovet iqtisodiyoti tarixi rivojiga Stanislav Strumilin salmoqli hissa qo‘shgan. U miqdoriy tahlil usullaridan foydalanib, mehnat unumdorligi va sanoat ishlab chiqarishi samaradorligi masalalariga alohida

⁴ Landes D. S. The Wealth and Poverty of Nations: Why Some Are So Rich and Some So Poor. – New York: W. W. Norton & Company, 1998. – 650 p.

⁵ Chandler A. D. The Visible Hand: The Managerial Revolution in American Business. – Cambridge (MA): Harvard University Press, 1977. – 608 p.

⁶ Morris P. J. T. The Matter Factory: A History of the Chemical Industry. – London: Reaktion Books, 2002. – 320 p.

e'tibor qaratgan⁷. Yana bir muhim tadqiqotchi Viktor Xromov bo'lib, uning asarlarida SSSR sanoatining rivojlanishi rejali iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi⁸.

Sovet modelini G'arb modeli bilan taqqoslash jiddiy farqlarni ochib beradi. G'arb mamlakatlarida kimyo sanoati asosan bozor iqtisodiyoti doirasida rivojlangan bo'lib, unda DuPont yoki BASF kabi xususiy korporatsiyalar hal qiluvchi rol o'ynagan. SSSRda esa soha taraqqiyoti davlat rejaları va markazlashgan boshqaruv asosida belgilangan.

Tadqiqotning nazariy asoslarini o'rganishda manbalarning o'ri ham beqiyos. Shu nuqtayi nazardan mavzuga doir manbalarni quyidagi uch guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir: birinchi guruh arxiv hujjatlari; ikkinchi guruh davriy matbuot materiallari; uchinchi guruhga statistik va boshqa rasmiy to'plamlarni kiritish mumkin.

Birinchi guruhga oid bo'lgan manbalar turkumida O'zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlar muhim o'rin tutadi⁹. Ularda O'zbekistondagi kimyo sanoati tarixi bilan bog'liq ko'plab jihatlar aks etgan. Ushbu fondlar tahlili O'zbekistonda kimyo sanoatining shakllanishi, rivojlanishi va uning tarmoqlararo aloqalarini o'rganishda muhim arxiv manbalari hisoblanadi. Ushbu guruhga kiruvchi fondlar respublika iqtisodiyoti, xususan, kimyo sanoatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab bergan yuqori davlat organlari faoliyatini aks ettiradi. Shuningdek, ikkinchi guruh manbalari doirasida Navoiy viloyat davlat arxivining SH-172, SH-177 fondlari ham muhim o'rin tutadi. SH-177-fondi Navoiy elektrokimyo kombinatiga tegishli (keyinchalik "Elektrokimyo zavodi" AJ). U mintaqada o'simliklarni himoya qilish vositalari (defoliantlar, gerbitsidlar) va boshqa maxsus kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan o'ziga xos strategik obyekt bo'lgan. SH-172-fond Navoiyazot ishlab chiqarish korxonasiga tegishli hujjatlarning fondidir¹⁰.

Ikkinchi guruh davriy matbuot materiallari; 1930 – 1990-yillarda O'zbekistonda hamda Moskvada nashr etilgan "Pravda Vostoka", "Qizil O'zbekiston", "Sovet O'zbekistoni", "O'zbekiston kommunisti", "Известия", "Правда", "Навоийский химик", "Ферганская правда", "Знамя дружба" "Inson va siyosat", "Экономика и жизнь", "Yoshlik" singari gazeta va jurnallarda O'zbekistonda kimyo sanoati tarixi bilan bog'liq ko'plab materiallar nashr qilingan. Vaqtli matbuotda ayrim arxiv manbalarida uchramaydigan ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Chunki matbuot keng ommaviy fikrlarning ochiq minbari bo'lib xizmat qilgan. Arxiv ma'lumotlarida esa idoraviy va kun tartibidagi masalalar hujjatlari muhim ahamiyatga ega. Ularda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy, loyihalash masalalarida ochiq maqolalar e'lon

⁷ Струмилин С. Г. Очерки экономической истории СССР. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1963. – 508 с.

⁸ Хромов В. В. Экономическое развитие СССР. – Москва: Наука, 1982. – 336 с.

⁹ R-837-fond – O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti, R-2600-fond – O'zbek SSR kimyo sanoati boshqarmasi, SSSR kimyo sanoati vazirligi, R-1619-fond – O'zSSR Vazirlar Sovetining Markaziy statistika boshqarmasi, R-2712-fond – O'z SSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, R-2742-fond – O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish jamiyati, R-90-fond – O'zbek SSR Qishloq xo'jaligi vazirligi, R-9-fond – "O'rta Osiyodagi Mehnat va Mudofaa Soveti vakili idorasi", R-368-fond – O'rta Osiyo davlat universiteti, R-1752-fond – O'zbek SSR Mahalliy va Yoqilg'i sanoati vazirligi, R-2653-fond – O'z SSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, R-2330-fond – O'zglavmestprom Mahalliy sanoat boshqarmasi, O'zSSR Vazirlar Sovetining qo'riqida, R-1-fond – "O'rta Osiyodagi Mehnat va Mudofaa Soveti vakili idorasi", R-2389 fond – O'zbek SSR Qurilish vazirligi, O'zbek SSR Vazirlar Soveti huzurida.

¹⁰ Navoiy VDA. M.172-fond, Navoiyazot ishlab chiqarish korxonasi. Fond haqida ma'lumot.

qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo O'zbekiston SSR kimyo sanoatiga oid maqolalarda¹¹ bo'lsa, markazning rejalashtirish siyosatini maqtash, partiya qarorlari va rejalarini ta'riflash holatlarini ko'rish mumkin.

Uchinchi guruhga statistik va boshqa rasmiy to'plamlar. Tadqiqotning manbaviy asosida statistik¹² va demografik to'plamlarning va nomenklatura hujjatlarini¹³ o'ziga xos o'rni bor. Bu statistik hisobotlarda O'zbekiston SSR va SSSRning turli iqtisodiy ko'rsatkichlari. Demografik ma'lumotlar va boshqalar aks etgan. Ular ham kimyo sanoati va uning aholi hayotidagi o'rni bilan bog'liq jihatlarni yoritishda muhim o'rin tutadi.

Tadqiq etilayotgan mavzuga oid adabiyotlarni, davriy-xronologik jihatdan quyidagi uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir: 1. Sovet hokimiyati davrida nashr etilgan adabiyotlar (1930–1990-yillar) 2. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar 3. Xorijiy mualliflar tomonidan yozilgan asarlar.

¹¹ Гришин.А. Так рождаются города.// Паравда востока. 01.01.1940. Юнусов С. Ю. Исследование в области химии алкалоидов. - В кн.: Юбилейный сборник, посвященный 25-летию Узбекской советской социалистической республики. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1949, - С. 223-264. Строительство "Ферганаазот" - задача каждого (УзТар). //Ферганская правда, 02.07.1962г. Каримов В. Никто не стоит на обочине// Комсомолец Узбекистана. 10.12.1963. Кривеченко В. Рассказ о большой химии // Дружба народов. - №2. 1964г. - С. 165. Химия и развитие легкой промышленности // Партийная жизнь. - №3. 1964 г. - С. 12.; Тез соз ва арзон курайлик// Совет Ўзбекитони. 05.07.1964 й.; Велюнский В. Михайлов А. Беды одного завода // Экономика и жизнь. 03.03.1968. - С.12-14.; Сазонова Е. Первые итоги перевода промышленных предприятий Узбекистана на пятидневную рабочую неделю // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. - №7. 1968. - С.9-13.; Базилев В. Индустрия плодородия // Экономика и жизнь. - №10. 1974г. - С.32.; Базилев В. У истоков большой химии // Экономика и жизнь. - №10. 1974г. - С.32.; Мухина.Н. Биография одного коллектива // Ленинский путь. 28.08.1975. Саттаров И. Из истории подготовки промышленных кадров в Узбекистане (1945-1950) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. - №1. 1976 г. - С.65-67.; Арипов Э. Становление и развитие химических исследований в Узбекистане. Узб. хим. журн., 1982, - №1. - С. 3-8.; Шистер Г. Ўзбекистон кўп миллатли ишчилар синфинини шаклланиши ва ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1985. - №10. - Б. 38.; Ученые химики республики к 70-летию великого октябрь // Узбекский химический журнал. - №3. 1987г. - С.3-6.; Ефимов Е. (УзТАГ)Срок: предоставлен кокандскому суперфосфатному заводу: к 1- января 1988 года он должен полностью и навсегда прекратить сброс загрязненных вод. иначе будет закрыт // Сельская правда 22.09.1987.; Тимофеева Л. Экология и мы: Сделаем воздух чище // Навоийский химик. 30.06.1989 й.; Панамарев В. Человек и биосфера: Заложники ... химии // Правда востока 30.06.1989.; Умархўжаев М. Халк кувончи - бизнинг кувончимиз // Совет Ўзбекитони. 26.08.1989 й. Труды Самаркандского государственного университета им А. Навои. Кафедра политической экономии вопросы экономики промышленности и сельского хозяйства // Новая серия, выпуск - № 141. Максимов П. (заведующий отделом легкой, пищевой промышленности и торговли ЦК КПСС). Бекназаров Ж. Локайдлик зинополярдан // Ёшлик. - №10. 1990 й. - Б. 2-7.; Кабулов С. Тоза ҳаво керак...// Коммунизм учун. / 09.10.1989й.; Эшпўлатов Б. Зарафшонни излаб.. // Ёшлик. 1990 й. - №4. - Б. 67-72.; Время платить долги: О платежах за загрязнение природной среды, ухудшение благоустройства и санитарного состояния города Навои // Знамя дружба. 25.06.1991.

¹² Народное хозяйство УзССР в 1971г. Статистический ежегодник. - Ташкент: Узбекистан, 1972. - С.70.; Народное хозяйство УзССР в 1975г.Статистический ежегодник. - Ташкент: Узбекистан, 1976. - С.35.; Народное хозяйство СССР в 1980 году (Статистический ежегодник). - Москва: Финансы и статистика, 1981. - С. 161.; Народное хозяйство УзССР в 1982г.Статистический ежегодник. - Ташкент: Узбекистан, 1983. - С.53.; Народное хозяйство УзССР в 1985г. Статистический ежегодник. - Ташкент: Узбекистан, 1983. - С.70.; Народное хозяйство УзССР в 1987г.Статистический ежегодник. - Ташкент: Узбекистан, 1988. - С.71.; <https://istmat.org/node/17071>.

¹³ Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925-1986) В 4 т.. Т. 1: 1925-1937. - 1987. - 726 с.; Резолюции и решения съездов компартия Узбекистени. Госиздат УзССР, 1957г. - 494 с.; Компартия Узбекистана в резолюциях и постановлениях съездов. - Ташкент: Узбекистан, 1968. - 673 с.; Труды Самаркандского государственного университета им А. Навои. Кафедра политической экономии вопросы экономики промышленности и сельского хозяйства // Новая серия, выпуск № 141. Самаркандский госуниверситет. - Самарканд 1964г. - 19 с.; Заседания Верховного Совета СССР восьмого созыва. Шестая сессия 17-19 июля 1973 года. Стенографический отчет. - М., Охрана здоровья в СССР. - М.: Финансы и статистика, 1990. - 122 с; <https://books.google.co.uz/>

Birinchi guruhga ishlar haqida shuni ta'kidlash kerakki, bu davrda bir guruh tarixchilar, iqtisodchilar va soha xodimlari mavzuga oid masalalar doirasida asarlar¹⁴ yaratdi. Ular orasida O'zbekiston xalq xo'jaligi rivojlanishining tarixiy yo'lini umumlashtiruvchi asarlar ko'pchilikni tashkil etadi¹⁵. Ularda markazning rejalashtirish siyosatini maqtash, partiya qarorlari va rejalarini ta'riflash holatlarini ko'rish mumkin. Mustaqillikning dastlabki yillarida va keyingi davrda mavzuninig ayrim masalalariga oid xolisona yondashilgan bir qator dissertatsiyalar va asarlar yaratildi¹⁶.

¹⁴ Шистер Г. Повышение культурно-технического уровня рабочих Чирчикского электрохимического комбината. – Ташкент: 1957.; Ульмасбаев Ш. Промышленное развитие советского Узбекистана (историко-экономический очерк), – Ташкент: Гост.Изд.Узб.ССР. 1958; Ульмасбаев Ш. Слива С. Индустриальное развитие Узбекистана за годы советской власти. – Ташкент: 1966. Сахабутдинова Х.Р. Развитие химической промышленности Узбекистана. Спец: 07.00.02. История СССР. Автореф. на соис.уч.степ – Ташкент: 1972; Шистер Г.А. Промышленные рабочие Узбекистана (Изменения в численности и составе). – Ташкент: 1975; Абдушукуров Т.Р. Социальные последствия современной научно-технической революции. – Ташкент: Узбекистан, 1976. – 391 с; Дульман А Химическая и нефтехимическая промышленность в развитии Бухаро-Навоийского территориально-производственного комплекса. Автореф. дис. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 08.00.04 / АН УзССР. Объедин. учен. совет по экономике Отд. филос., экон. и юрид. наук. – Ташкент: 1976; Шистер Г.А., Гуревич М.Н., Тетенева Л.Г. Руководство Компартии Узбекистана подготовкой рабочих кадров в условиях развитого социализма. – Ташкент: Узбекистан. 1981; Усманов А. Подготовка промышленных кадров узбекистана и рост их творческой активности (1956-1965 гг.) Спец: 07.00.02 - История СССР. – Ташкент: 1984; Ахунова М., Акилов К., Тетенева Л. Рабочий класс Узбекистана в условиях научно-технической революции. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 63; Ахунова М., Акилов К., Тетенева Л. Рабочий класс Узбекистана в условиях научно-технической революции. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 63; Юлдашев О. Состояние и проблемы оздоровления, сохранения природной среды Узбекистана в 80-е году. Автореферат. Специальность 07.00.02. - Отечественная история. – Ташкент: Фан, 1984; Азимов М., Салимова Э. Ўзбекистонда химия саноатининг ривожланиши ва ижтимоий ишлаб чиқаришни жадаллаштириш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1986. – Б 7; Бадридинов С. Вклад трудящихся в развитие - химической промышленности Узбекистана (1971-1980 гг.) Спец: 07.00.02. История СССР. Дисс. на. соис.уч.степ – Ташкент: 1988; Шарифходжаева Г. История становления и развития химической науки и химической промышленности Узбекистана (1917 - 1945 гг.) Спец: 07.00.02 История СССР 07.00.10 00.10 История науки и техники. Дисс. на. соис.уч.степ. – Ташкент: 1991; Умурзакова Р. Развитие химической промышленности в Узбекистане в период 70-х-80-х годов. (История, опыт, проблемы) Спец: 07.00.02 Отечественная история. Дисс. на. соис.уч.степ. – Ташкент: 1994.

¹⁵ Лукьянов П. Резолюции и решения съездов компартия Узбекистени. Госиздат УзССР, 1957; Дульман А. Ўзбекистон химия саноати. – Тошкент: 1959; Лукьянов П. Краткая история химической промышленности СССР. – Москва: Изд АН СССР, 1959; Десятчиков Б., Абубакиров Н. Кимё саноатини жадал ривожлантириш умумхалк иши. – Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ўзбекистон Сурх”. 1960; Ерофеев В. По пути технического прогресса (Самаркандский суперфосфатный завод). – Ташкент: 1960; Давидов И., Карпов Е. Пахтачилик ва химия. – Тошкент: Ўзбекистон, 1965; Абдушукуров Т.Р., Заидов М.А. Некоторые проблемы повышения производительности труда в промышленности Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1970; Зиядуллаев С.К. Планирование и развитие экономики Узбекской ССР. – Ташкент: Узбекистан, 1972; Юнусов С. Ордена трудового красного знамени институт химии растительных веществ. – Ташкент: 1973; Есянова Л. Актуальная проблемы химической науки и промышленности. – Москва: Знание, 1973; Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. – Т.: Фан, 1974; История рабочего класса Советского Узбекистана. – Ташкент: Фан. 1974; Кадырова Т. Современная архитектура Узбекистана. – Ташкент: Изд. литературы и искусства, 1974; Абдушукуров Т.Р. Социальные последствия современной научно-технической революции. – Ташкент: Узбекистан, 1976; Дульман А Химическая и нефтехимическая промышленность в развитии Бухаро-Навоийского территориально-производственного комплекса. Автореф. дис. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 08.00.04 / АН УзССР. Объедин. учен. совет по экономике Отд. филос., экон. и юрид. наук. – Ташкент: 1976, Первенец химии Узбекистана – Чирчикское производственное объединение “Электрохимпром”, – Ташкент: Научно-исследовательский институт научно-технической наформации и технико-экономических исследований Госплана УзССР, 1978; История профсоюзов Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан. 1978; Аскаров И., Ахмеров К. Ўзбекистон кимёгарлари. – Тошкент: ЎзФАН, 1979; Институт химии академик наук УзССР. – Ташкент: Наука. 1983; <https://ru.wikipedia.org/wiki/XXI> съезд КПСС Решения Съезда. Развитие химической промышленности в СССР (1917-1980). – Москва: Наука. 1984.

¹⁶ Ахмедов. Э. Ўзбекистон шаҳарлари. – Тошкент: Ўзбекистон. 1990.; Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991; Холмўминов Ж. Экология ва ердан фойдалинишни ҳукукий масалалари. – Тошкент: Мехнат, 1991; Саламова Х., Қаршиев Р. Навоийдаги экологик инқироз ва унинг олдини олиш ҳақида айрим мулоҳазалар. – Тошкент: Билим. 1993.; Кадыров В. Становление химии в Республике Узбекистон. – Ташкент: 1995; Қаршиев Р. Навоий шахрининг иқтисодий-ижтимоий ва маданий тараққиёти: тажриба ва

Uchinchi guruhga xorijiy adabiyotlarni kiritish joiz. Ushbu mavzu turli davrlarda Sovet Ittifoqi miqyosidagi davlatlarda,¹⁷ ittifoq tarqagach MDH hududidagi mamlakatlar¹⁸ miqyosida ham o'rganilgan. Biroq ushbu adabiyotlarda ham dissertatsiya mavzusi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“1930–1940-yillarda O‘zbekistonda kimyo sanoati ishlab chiqarilishi holati”** deb nomlangan bo‘lib, unda O‘zbekistonga kimyogar olimlarning kelishi, tadqiqot yo‘nalishlari va laboratoriyalarga asos solinishi kabi masalalar tahlil etilgan. 1920-yil 7-sentabr kuni V.I.Lenin RSFSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan Toshkentda Davlat universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi dekretni imzoladi¹⁹. Universitetni tashkil etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita 102 nafar professor va 91 nafar o‘qituvchini (dotsent va assistentlar) Toshkentga yuborilishini tasdiqladi²⁰. Ammo bunday bo‘lmadi: faqatgina 43 nafar professor va 43 nafar o‘qituvchi, ya‘ni yarmidan kamrog‘i, haqiqatan ham Toshkentda ish boshlash uchun keldi²¹. 1923-yili universitet “O‘rta Osiyo Davlat Universiteti” deb nomlandi²². O‘rta Osiyoda kimyo fanining rivojlanishida O‘rta Osiyo davlat universitetining o‘rni katta, uning kimyo fakulteti O‘rta Osiyodagi birinchi kimyo markazi edi. Turkiston xalq universitetining kimyo-texnologiyalar bo‘limida tashkil etilgan noorganik va organikkimyo laboratoriyalari negizida kimyoviy tadqiqotlarni shakllantirish va

муаммолар (1958-1990 йй.) тарих.фан.ном.илмий.дараж.дисс. – Андижон. 1996; Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70-80 йиллар мисолида). – Тошкент: Шарқ. 1999; Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий-бойликларини талаш сиёсати: Тарих шохидлиги ва сабоқлари. – Тошкент: Шарқ. 2001; Турсунов С. Мустабид тузумнинг аграр сиёсати (1946-1965 йиллар). – Тошкент: Шарқ. 2001; Навоийский горно-металлургический комбинат – История создания и развития. – Ташкент: Шарқ, 2002; Навоий давлат кончилик институти 10 йил (Масъул муҳаррир Ш.Агзамов). – Навоий: ЎЗР НКМК. 2005; Юнусова Х. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари (XX аср 80-йиллари мисолида). – Тошкент: Zar qalam. 2005; Мўътабар зиё маскани (1918-2008). – Тошкент: 2008; Думбрава А.А. Гидрометаллургическому заводу №1 - 45 лет // Ўзбекистон кончилик хабарномаси, 2009. – №4. – С. 3.; Давлетов. С. Ўзбекистонда экологик вазият ва унинг ижтимоий муаммолари. XX асрнинг иккинчи ярми – XXI аср боши). – Тошкент: Фан. 2012; “Навоийазат” ОАЖ 50 йил. – Навоий: Алишер Навоий. 2014; Ҳайдаров И. Ўзбекистон саноатининг совет иттифоқи ягона халқ хўжалигидаги ўрни (1945-1991 йиллар). – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти. 2019; Ўзбекистон кимёгар олимлари. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2014; Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. – Ташкент: Фан. 2024.

¹⁷ Джумаева О. Трудники химической промышленности Туркменистана в 60-70-е годы: трудовая и творческая активность. Специальность 07.00.02 история СООР. Авт.дисс. на осн. уч. степ. кан.ист. наук. – Ашхабад: 1989; Аскарлов Ш.М. Из опыта решения социально-экономических проблем на предприятиях химической промышленности в 80-е годы. Историко-партийный аспект проблемы (на материалах республик Средней Азии). Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Москва, 1991. – С. 18.

¹⁸ Кузнецова Е. Становление и развитие химической отрасли промышленности Горьковской области в 30-х - первой половине 40-х годов XX века. 07.00.02 - «Отечественная история». Авт.дисс. на осн. уч. степ. кан.ист. наук. – Нижний Новгород 2006г. Басыров Р. Создание химической промышленности в Башкирской АССР в 1930-60-е годы. Специальность 07.00.02. – Отечественная история. авт. дисс. на соис. учен. степ. кан.ист. наук. – Екатеринбург. 2006; Соколов П. Развитие химической промышленности в Тульской области (1929-1958 гг.). Специальность 07.00.02 – Отечественная история. Авт.дисс. на осн. уч. степ. кан.ист. наук. – Москва. 2009; Кабдрахманова С. История развития и становления химической промышленности Казахстана (1917–1991 гг.) Специальность 07.00 10 - История науки и техники. Авт.дисс. на осн. уч. степ. кан.ист. наук. – Уфа, 2007; Сельская В. Становление химической промышленности СССР (по материалам Ярославского региона 1928-1940 гг.). Специальность 07.00.02 – «Отечественная история». Авт.дисс. на осн. уч. степ. кан.ист. наук. – Мытищи: 2018.

¹⁹ О‘зМА, 837-fond, 32-ro‘yxat, 1583- yig‘ma jild, 267-varaq.

²⁰ О‘зМА, 837-fond, 32-ro‘yxat, 1583- yig‘ma jild, 265-varaq.

²¹ О‘зМА, 837-fond, 32-ro‘yxat, 1583- yig‘ma jild, 266-varaq.

²² О‘зМА, 837-fond, 32-ro‘yxat, 1583- yig‘ma jild, 268-varaq.

rivojlantirish masalalari har tomonlama ko'rib chiqilgan²³. Fizika-matematika fakultetining kimyo bo'limida ilk professorlar sifatida S.N.Naumov (organik kimyo), M. I. Prozin (noorganik kimyo) va YE. V. Rakovskaya (fizik kimyo) faoliyat yuritishgan.²⁴ 1918–1919-yili universitet qoshida kimyo laboratoriyasining bunyod etilishi keyinchalik O'rta Osiyoda bir qator kimyo laboratoriyalaring yuzaga chiqishiga poydevor bo'ldi. Qayd etilgan laboratoriyada tog' jinslari, tuproq, suv, portlovchi moddalar, ko'mir, neft, qurilish materiallari va dorivor o'simliklarni o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar bajarilgan²⁵. Bu laboratoriyalarga asos solgan M.Pareskakov va G.Glinitsa edi²⁶. 1930-yili professor V.A.Novikov boshchiligida Analitik kimyo, 1932-yilda professor B.G.Zaprometov rahbarligida Noorganik kimyo, 1934-yilda Professor S.N.Naumov Organik kimyo, 1937-yilda Kolloid kimyo kafedralari tashkil etildi. 1946-yili akademik O.S.Sodiqov tashabbusi bilan tabiiy birikmalar kimyosi kafedrasini tashkil qilindi²⁷. Fizik kimyo fanlari professori D.Alekseyev Toshkentga kelib shu yo'nalish kafedrasini va laboratoriyasini tashkil etdi²⁸. Biroq sanab o'tilgan kimyoviy tadqiqotlar mahalliy sharoit va talablardan ajralgan holda amalga oshirildi. 1931-yil O'rta Osiyo davlat universitetining kimyo fakulteti qayta tashkil etildi. Uning tarkibidagi Kimyo-texnologiya bo'limiga A.Jdanov, kimyoviy tadqiqotlar bo'limiga A.Shamsiyev rahbarlik qilgan. Kimyo-texnologlarni tayyorlash texnik kimyo kafedrasini tomonidan amalga oshirildi²⁹. 1939-yilda u mustaqil kimyo-texnologiya fakultetiga aylantirildi³⁰. Texnik kimyo kafedrasini negizida O'z NIIMProm (1930) ilmiy tadqiqot sanoat- iqtisodiyot instituti tashkil etilib, keyinchalik O'zFA negizidagi Kimyo ilmiy-tadqiqot institutiga aylantirildi³¹.

Respublika hukumati Chirchiq elektorkimyo korxonasini qurilishiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida UODUda O'rta Osiyo uchun kadrlar tayyorlash lozim edi. 1929/30 o'quv yilida O'ODUda kimyo fakultetida kimyo-texnologlar uchun guruhlar ochildi va talabalar qabul qilina boshlandi. Ammo ikki yilda professor-o'qituvchilar yetishmasligi sababli O'ODU yetarli mutaxassis tayyorlay olmasligi aniqlandi. Fakultet dekani texnologlar guruhi talabalarini kimyogarlar guruhiga ko'chib o'tishga yoki Moskva, Ivanova-Voznesensk va Dnepropetrovsk kimyo-texnologiyalar institutlariga borishga taklif qildi³². 1943-yilda SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali qayta tashkil etilib, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasiga

²³ Шарифходжаева Г. История становления и развития химической промышленности Узбекистана (1917-1945 гг.). автореф. Канд. Ист. СССР наука и техн. Ист. СССР. – Ташкент, 1991. – Б. 12.

²⁴ Арипов Э. Становление и развитие химических исследований в Узбекистане // Узбекский химический журнал. – №6. 1982. – С.3-8.

²⁵ Мўтабар зиё маскани (1918-2008) – Тошкент, 2008. – Б 79.

²⁶ Шарифходжаева Г. История становления и развития химической промышленности Узбекистана (1917-1945 гг.). автореф. Канд. Ист. СССР наука и техн. Ист. СССР. – Ташкент, 1991. – Б. 12.

²⁷ Мўтабар зиё маскани (1918-2008) – Тошкент, 2008. – Б 79.

²⁸ Шарифходжаева Г. История становления и развития химической промышленности Узбекистана (1917-1945 гг.). автореф. Канд. Ист. СССР наука и техн. Ист. СССР. – Ташкент, 1991. – С. 13.

²⁹ Есянова Л.Н. Актуальные проблемы химической науки и промышленности. – Москва: 1973. – С. 23.

³⁰ Арипов Э. Становление и развитие химических исследований в Узбекистане // Узбекский химический журнал. – №6. 1982. – С.3-8.

³¹ Шарифходжаева Г. История становления и развития химической промышленности Узбекистана (1917-1945 гг.). автореф. Канд. Ист. СССР наука и техн. Ист. СССР. – Ташкент, 1991. – С. 14.

³² Кадыров В. Становление химии в Республике Узбекистон. – Ташкент, 1995. – С.26.

aylantirildi³³. 1943-yilda olti laboratoriyadan iborat bo‘lgan Kimyo instituti tashkil etildi. Ushbu laboratoriyalar quyidagilardan iborat edi: ko‘mir kimyosi, sement kimyosi, elektrokimy, neft kimyosi, alkaloidlar kimyosi va tuz laboratoriyasi. O‘sha vaqtda institutda atigi ikki nafar kimyo fanlari nomzodi ishlagan³⁴. 1943-yilda S. Yunusov O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Ximiya institutida alkaloidlar laboratoriyasini tashkil etadi³⁵. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan ko‘plab ilmiy markazlar mamlakatning ichki hududlariga – xususan O‘zbekistonga ko‘chirildi. Shunday qilib, Markaziy Osiyo davlat universitetining kimyo fakulteti bazasida L. Y. Karpov nomidagi Fizika-kimy o institutining asosiy laboratoriyalari, Qizil Armiyaning mexanizatsiya va motorizatsiya harbiy akademiyasi joylashtirildi. Chirchiqda Azot sanoati loyihalash davlat instituti (GIAP)ning ayrim bo‘limlari va laboratoriyalari, Xarkov kimyo instituti hamda O‘g‘itlar va fungitsidlar ilmiy-tadqiqot instituti (NIUIF)ning ayrim bo‘limlari faoliyat yuritdi. Qo‘qonda D.I.Mendeleyev nomidagi kimyo-texnologiya institutining laboratoriyalari ish boshladi. Samarqanddagi davlat universitetida Harbiy kimyo akademiyasi faoliyati tashkil etildi³⁶.

O‘zbekistonda tegishli xomashyo manbalari bo‘lishiga qaramay XX asrning 30-yillarigacha Kimyo sanoati deyarli yo‘q edi³⁷. Industrializatsiya va kollektivlashtirish siyosatlarini sovet ittifoqida kimyo sanoatida o‘shini talab qildi. Insoniyat tarixida “katta tezlanish” deb nomlangan global moddiy o‘zgarish natijasi edi – bu atama atrof-muhit tarixchilari tomonidan “The Great Acceleration” deb yuritiladi³⁸. 1932-yilda respublika kimyo sanoatining ilk vakillari – Farg‘ona vodiysidagi Shorsuv sulfat koni va Toshkentdagi avtogen zavod ishga tushdi. Ularda ishchilar soni 1784 kishini tashkil etdi³⁹. Shorsuv sulfat koni sobiq SSSRda ishlab chiqariladigan oltingugurtning 57% ini bergan va Ittifoqning oltingugurt mustaqilligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynadi⁴⁰. 1935 -yilda ikki Qo‘qon va Kogon to‘g‘ralma o‘g‘it zavodlari ishga tushirildi. Ammo aralashma o‘g‘itni sifati past bo‘lib, u tezda toshday qattiqlashib qolgan. Bu esa uni yerga singdirishda muammolarga olib kelardi⁴¹. 1941-yil kuzidayoq Qo‘qon aralash o‘g‘itlar fabrikasi hududida superfosfat zavodi qurilishi boshlandi. 1941 -yil dekabrda, gitlerchilar Moskva ostida mag‘lub etilgan paytda, Qo‘qonga mehnat armiyasi safidagi ishchilar yetib keldi. 1946-yil aprelida Qo‘qon superfosfat zavodining birinchi navbati ishga tushdi⁴². 1940-yilga kelib, O‘zbekistonda 5 ta yirik kimyo sanoati korxonalari va 22 ta kichik korxona mavjud edi. Bu kichik korxonalar bo‘yoqlar, laklar, olifa, yog‘,

³³ Шарифходжаева Г. История становления и развития химической промышленности Узбекистана (1917-1945 гг.). автореф. Канд. Ист. СССР наука и техн. Ист. СССР. – Ташкент, 1991. – С. 14.

³⁴ О развитии химической науки в АН УзССР за 20 лет // Узбекский химический журнал. №6. 1953 г. – С.5.

³⁵ Набиев М. Ученый и учитель: к 75-летию члена-корреспондента академик наук СССР С.Ю.Юнусов // Правда востока. 18.03.1984

³⁶ Арипов.А. Институт химии ан узССР в годы великой отечественной войны // Узбекский химический журнал. №1. 1985. – С.3-8.

³⁷ Кимё sanoati. <https://uztext.com/83188-text.html>

³⁸ Marin Coudreau. Soviet Plans, Capitalist Chemistry: Khimizatsiya and the estern Pesticide Companies in the Age of Poisons. Global Environment 17 (2024).© The Author. Open Access (CC BY 4.0)* doi: 0.3828/whpge.63837646622489. – P.204. (229).

³⁹ Шарифходжаева Г. История становления и развития химической промышленности Узбекистана (1917-1945 гг.). дис. Канд. Ист. СССР наука и техн. Ист. СССР. – Ташкент, 1991. – С. 144.

⁴⁰ kimyo sanoati. <https://uz.wikipedia.org/>

⁴¹ Резолюции и решения съездов компартия Узбекистени. Госиздат УзССР, 1957. – С.308-309.

⁴² Базилев В. У истоков большой химии // Экономика и жизнь. – №10. 1974. – С.32.

qatron va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarar edi⁴³. Ikkinchi jahon urushi yillarida Chirchiq elektr ximiya kombinati, Quvasoy ximiya zavodi, Namangan sun'iy tola, Toshkent ximiyafarmatsevtika zavodlari qurildi. 1942-yili Qo'qonda superfosfat, 1943-yili Farg'ona gidroliz zavodlari qurila boshlandi. Umuman, 1945-yili O'zbekiston ximiya sanoati yalpi mahsuloti 1940-yilga nisbatan 3,2 baravar ko'paydi⁴⁴.

Ikkinchi jahon urushi arafasida Chirchiqelektrokimyo zavodi qurishga ehtiyoj ortdi. Bu zavod ishlashi uchun GES qurilishi lozim edi. Glavxim orqali O'zbekiston SSR oliy kengashining moliyalashtirish rejasiga kiritilgan. Shu bilan birga mazkur qurilishni o'rganish va loyihalash bo'yicha bosh maslahatchi sifatida professor G.Aleksandrov taklif qilindi. Azot qilishi loyihasi muallifi, muhandis K.A.Drennokov ko'rsatilgan. U boshqarmaning bosh muhandisi etib tayinlandi va munosabatlarda vakolatli shaxs etib belgilandi⁴⁵. Aslida Chirchiqelektrokimyo zavodini qurish g'oyasi 1926-yilda paydo bo'lgan. Uning muallifi akademik G.Aleksandrov edi. Dastlab Chirchiq daryosidan foydalanishning ikki bosqichli sxemasi nazarda tutilgan edi⁴⁶. 1932-yil oktabrda "Chirchiqstroy" boshlig'i D.P.Rozit ko'p tirajli "Udarnik Chirchiqstroya" gazetasida shunday yozadi: "Biz SSSRda (Dneprdan keyin) eng yirik GESni qurmoqdamiz. Chirchiq azot zavodi nafaqat Ittifoqda, balki dunyoning biror bir mamlakatda ham tayyor namunasiga ega emas". Qurilish ishlari hajmi katta edi. Kanal va to'g'onlar qurishda 22 million kub metr grunt olib tashlanishi kerak edi bu Dneprqurilishdagi ish hajmidan besh baravar ko'p, Belomorkanal va Kuznets qurilishdagi ishlardan ancha ko'p edi⁴⁷. Qurilish ishlari boshlangach, bu muhandislik ishlari davomida loyihada kamchilik borligi aniqlandi. Umumiy quvvati 270 ming kvt bo'lgan uchta: Komsomol, Tovoqsoy va Troitskiy GESlarini qurishga qaror qilindi. Agar GESlarning sxemasi juda kech, faqat 1935-yilda aniqlangan bo'lsa, unda kimyo zavodining qurish masalasi 1937-yil oxirigacha aniq emas edi. Azotli o'g'itlar zavodining tegishli qismi 1937-yilda ishga tushirilishi kerak edi, 1938-yilda Chirchiq elektrokimyo zavodining ikkinchi navbati ishga tushirilishi kerak edi. Biroq, elektrokimyo zavodini ishga tushirish bo'yicha bu qaror bajarilmadi.⁴⁸

Stalin va U. Yusupov 1940-yil paxtachilikni rivojlantirish qaror loyihasi bilan tanishib chiqish jarayonida 1941-yilda zavod faoliyati boshlanishi haqida Stalinga hisobot berilganda, u Chirchiq zavodining birinchi navbati 1940-yildayoq yakunlanishi zarurligini ko'rsatadi. Stalinning 1939-yil 25-dekabrda bergan bu ko'rsatmasi asosida "Chirchiqqurilish"ni tezlashtirish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi⁴⁹. 1939-yil 25-dekabr va 5-yanvarda SSSR MK VKP(b) va XDKning qurilish ishlarini jadallik bilan 1940-yilning to'rtinchi choragida tugatish to'g'risida ikkita rezalyutsiyasi qabul

⁴³ O'zMA, R-2600, 9-ro'yaxat, 114- yig'ma jild, 10- varaq.

⁴⁴ Азимов М., Салимова Э., Азимов М. Ўзбекистонда химия саноатини ривожланиши ва ижтимоий ишлаб чиқаришни жадаллаштириш. – Т.: Ўзбекистон. 1986. – Б. 8.

⁴⁵ O'zMA, R-837-fond, 6-ro'yaxat, yig'ma jild-222, 50-varaq.

⁴⁶ O'zMA, R-837-fond, 32-ro'yaxat, yig'ma jild-2219, 39-varaq

⁴⁷ Первенец химии Узбекистана – Чирчикское производственное объединение "Электрохимпром", – Ташкент: Научно-исследовательский институт научно-технической наформации и технико-экономических исследований Госплана УзССР, 1978г. – С.3.

⁴⁸ O'zMA, R-837-fond, 32-ro'yaxat, yig'ma jild-2219, 39-varaq

⁴⁹ O'zMA, R-837-fond, 32-ro'yaxat, yig'ma jild-2219, 39-varaq

qilindi⁵⁰. 1940-yilda kimyo sanoatining eng yirik korxonasi – Chirchiq elektrkimyo kombinati (bugungi kunda “Maksam-Chirchiq” AJ) mahsulot bera boshladi. 1940-yilda “Chirchiqqurilish”ga yordam berish uchun Toshkent va boshqa shaharlardan 5000 ga yaqin ishchi va xizmatchilar keldi⁵¹. 1941-yil 25-yanvarda zavodning rasmiy ishga tushganligi e’lon qilindi⁵². 22-iyunda fashistlar Germaniyasining e’lon qilinmagan urushi boshlanishi munosabati bilan oktabr oyida Chirchiqazot zavodiga evakuatsiya qilingan Gorlovka, Stalinogorsk va Dneprodzerjinsk zavodlaridan ishchilar va jihozlar keldi. Yil oxirigacha kombinat direktori – S.V.Sadovskiy va bosh injener Milavanov boshchiligida 213 ta ustaxona ishga tushirildi. Shu davrda butun O’rta osiyo davlatlariga yirik sanoat korxonalari evakuatsiya qilindi. Kozog’istonga 1942- yil oktabrgacha 142 korxona, yangi joyda, 107 zavod fabrika ko’chirganlar orasida alohida sexlar ishga tushdi⁵³. Keyinchalik kombinat qurilishi haqida ilmiy matbuotda shunday fikrlar yozilgan: “qancha metall, qancha nerjaveyka, qancha quvurlar shuncha bekorga ketgan ekan. Bu nafaqat ta’mirchilar uchun, balki butun kombinatning boshqaruvi uchun ham noqulay va samarasiz yechim edi”⁵⁴. Zavodga Stalinogorskdan kelgan direktor S.V.Sadovskiy N.F. Lisichkinning o’rniga tayinlandi.⁵⁵ Mudofaa uchun yuz minglab rubl tanklar va boshqa harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga yo’naltirildi. 1943-yil may oyida SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Farmoni bilan respublikada kombinat jamoasi o’zining fidokorona mehnati uchun birinchi Mehnat Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlandi. Urush yillarida kombinat 14 marta Davlat Mudofaa Qo’mitasining ko’chma Qizil Bayrog’iga sazovor bo’ldi, 1946-yilda esa hukumat qaroriga binoan bu bayroq unga abadiy saqlash uchun berildi va mehnat shon-shuhratining ramziga aylandi⁵⁶.

Ikkinchi jahon urushi davrida qishloq xo’jaligi uchun mo’ljallangan pestitsidlar ta’minoti urushdan oldingi darajaning atigi 6–18 foizigacha tushib ketdi. Qishloq xo’jaligi hosildorligi pasayib ketgani sababli, pestitsid ishlab chiqaruvchi zavodlarni tiklash va yangidan qurish davlat uchun dolzarb vazifaga aylandi. Xususan, 1946–1947-yillar guruchsizlik davrida, oziq-ovqat ishlab chiqarishni kengaytirish sovet hokimiyati uchun muhim vazifa bo’lib qoldi. 1949-yilga kelib esa pestitsidlar ta’minoti darajasi urushdan oldingi ko’rsatkichdan ham oshib ketdi⁵⁷. Umuman olganda, XX asrni 30–40-yillarida O’zbekistonda asos solingan kimyo sanoati qator muammolarga duch keldiki, ularni yechish katta inson resursi va mablag’ talab qilar edi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“1950-1980-yillarda O’zbekiston kimyo sanoati rivojlanishi”** deb nomlanadi. Bu bobda ham shu yillarda kimyo fanining

⁵⁰ Кадыров В. Становление химии в Республике Узбекистон. – Ташкент, 1995. – С.25.

⁵¹ Гришин.А. Так рождаются города. Паравда востока. //Паравда востока. 01.01.1940

⁵² Кабдрахманова С. История развития и становления химической промышленности Казахстана (1917-1991гг.). автореф. Канд.тех.наук. – Уфа. 2007. – Б. 9.

⁵³ Кабдрахманова С. История развития и становления химической промышленности Казахстана (1917-1991гг.). автореф. Канд.тех.наук. – Уфа. 2007 – Б. 9.

⁵⁴ Кривченко В. Рассказ о большой химии // Дружба народов. – №2. 1964г. – С.165.

⁵⁵ Кадыров В. Становление химии в Республике Узбекистон. – Ташкент, 1995. – С.39.

⁵⁶ Первенец химии Узбекистана – Чирчикское производственное объединение “Электрохимпром”. Научно-исследовательский институт научно-технической наформации и технико-экономических исследований Госплана УзССР. – Ташкент, 1978. – С. 8.

⁵⁷ Marin Coudreau. Soviet Plans, Capitalist Chemistry: Khimizatsiya and the estern Pesticide Companies in the Age of Poisons. Global Environment 17 (2024).© The Author. Open Access (CC BY 4.0)* doi: 0.3828/whpge.63837646622489. – P. 204.

ishlab chiqarish bilan va 1980-yillardagi kimyo sanoatidagi iqtisodiy va texnik holat xususida soʻz yuritiladi. 1950-yillarda Sovet Ittifoqida sanoat tarixi boʻyicha ilmiy izlanishlarning kuchayishi, avvalo, Ikkinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy tiklanish ehtiyoji bilan bogʻliq edi.

1952-yilda I.Stalin tomonidan pestitsidlar ishlab chiqarishni keskin oshirish haqidagi buyruq imzolangan. Yangi pestitsidlarni yaratish vazifasi asosan oʻgʻitlar, insektitsidlar va fungitsidlar ilmiy-tadqiqot instituti (NIUIF) zimmasiga yuklatilgan edi. Biroq 1954-yilda Davlat nazorati komissiyasi kimyo sanoati vazirligi va NIUIF faoliyatini tekshirib, shunday xulosaga keldi: “Yangi tayyorlamalar boʻyicha tadqiqotlar samarasiz boʻlgani sababli, oʻziga xos, yuqori samarali milliy mahsulotlar yaratilmadi⁵⁸”. 1950-1960-yy kimyo sanoati yangi ishlab chiqarish bosqichiga kirdi. Hisoblarning koʻrsatishicha, respublikaning atigi 8-10 foiz paxta maydonidagi koʻk massa yigʻib olinsa, undan butun mamlakatning ehtiyojini qondirishga yetarli miqdorda limon kislotasi olish imkoni yaratildi⁵⁹. Yetti yillikda (1959-1965) Bekobod shahrida gʻoʻzapoyadan fur-furol chiqaradigan zavod, Andijon va Yangiyoʻl gidroliz zavodlarida esa gʻoʻza barglaridan limon kislotasi va olma kislotasi ishlab chiqaradigan sexlar qurilishi rejalashtirildi⁶⁰. 1959-yil Chirchiq shahrida azot sanoati loyihalash va ilmiy tekshirish instituti (GIAP) filiali barpo etildi⁶¹. Chirchiqdagi generatorning ishlash tajribasi Bolgariya va Xitoy Xalq Respublikasidagi azot sanoati zavodlari uchun shunday turdagi generatorlarni loyihalash va qurishda asos boʻldi. Bu qurilma GIAP (Davlat Azot Sanoati Instituti) loyihasi asosida jihozlangan edi⁶².

Oʻzbekiston SSR Fanlar akademiyasida polimerlar sohasida tekshirishlar olib boradigan laboratoriyalar va Polimerlar ximiyasi instituti barpo etildi. Oʻrta Osiyo Politexnika institutida polimerlar muammosi bilan maxsus shugʻullanadigan laboratoriya tashkil qilindi. Bundan tashqari, Toshkent toʻqimachilik institutida yangi oʻquv yilidan boshlab sunʼiy tola texnologiyasi va asosiy organik sintez mutaxassisleri tayyorlana boshlandi. KPSS Markaziy Komiteti may Plenumining qaroriga muvofiq Oʻzbekistonda ximiya sanoatini rivojlantirishga yordam beradigan Respublika komiteti tuzildi⁶³. Zavodlarning oʻzida ham navotorlik boʻlimlari tashkil etildi. Masalan, Samarqand superfosfat zavodida birinchi ratsionalizatorlik taklifi 1954-yil oktabrida sobiq konstruktor keyinchalik esa zavod konstruktorlik byurosi boshligʻi boʻlgan F. Xamidullin tomonidan berilgan edi⁶⁴. Oʻzbekistonda, boshqa SSSR respublikalari singari, kimyo sanoatida yangi zamonaviy va eski texnikalar bir vaqtning oʻzida mavjud edi. Qarorlar ilmiy-texnik progressni joriy qilish haqida boʻlsada, moddiy resurslar yetishmasligi sababli ular faqat qogʻozda qoldi⁶⁵. Xrushchyov Fanlar Akademiyasi tuzilmalari, Oʻzbekistondagi ilmiy muassasalar va

⁵⁸ Marin Coudreau. Soviet Plans, Capitalist Chemistry: Khimizatsiya and the estern Pesticide Companies in the Age of Poisons. Global Environment 17 (2024).© The Author. Open Access (CC BY 4.0)* doi: 0.3828/whpge.63837646622489. – P.206.

⁵⁹ Десятчиков Б. Абубакиров Н. Кимё саноатини жадал ривожлантириш умумхалқ иши. –Т.: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ўзбекистон Сурх”. 1960. –Б. 25.

⁶⁰ Дульман А. Ўзбекистон химия саноати. – Тошкент: 1959. – Б. 18.

⁶¹ Дульман А. Ўзбекистон химия саноати. – Тошкент: 1959. – Б. 20-21.

⁶² Химия в Узбекистане. – Ташкент: Наука. 1965. – С.383.

⁶³ Дульман А. Ўзбекистон химия саноати. – Т.: 1959. – Б. 20-21.

⁶⁴ Кривченко В. Рассказ о большой химии // Дружба народов. – №2. 1964г. – С.162.

⁶⁵ ОʻзМА. F-R2600. 1-roʻyxat. 18-yigʻma jild. 18- varaq.

oliy o'quv yurtlarini tanqid qilib: "...ayrim ilmiy muassasalar va olimlar ishlab chiqarish ehtiyojlaridan uzilib qolgan holda faoliyat yuritgan, ularda amaliyotga yaqin tajriba bazalari yetishmaydi, ilmiy-tadqiqot ishlarini eksperimental sinovdan o'tkazish uchun maxsus bazalarning yetishmasligi jiddiy kamchilikdir, polimer kimyo sohasida nazariy va izlanuvchi ishlarini rivojlantirish orqali tez fursatda sanoat uchun yangi takliflar tayyorlanishi lozim"⁶⁶, – degan edi. Bu tanqidlardan so'ng qator olimlar sohalarni rivojlantirdi. S.Yunusov Yangi alkaloid saqllovchi o'simliklar va ularning alkaloidlarini topib, yangi ochilgan alkaloidlarning tuzilishini aniqlagan. Nazariy va amaliy jihatdan qimmatli bo'lgan o'simlik moddalarini aniqlagan⁶⁷. O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida O'simlik moddalari kimyosi instituti tashkil qilinishiga olib keldi va 1956-yilda bu ilmiy dargoh tashkil topdi⁶⁸. Malik Nabiyeв ishlarida asosiy e'tibor oddiy va superfosfatlarning xossalari ammiaklar bilan ammonizatsiya qilib yaxshilashga qaratilgan. Ushbu izlanishlar natijalari 1952–1967-yillarda Qo'qon, Samarqand, Jambul va boshqa ko'plab superfosfat zavodlarida amaliyotga joriy qilindi. Uning ulkan xizmatlari tufayli butun o'lkada keng miqyosda ishlatilayotgan zaharli DDTni va 1987-yildan boshlab o'ta zaharli paxta defolianti "Butifos" ni ishlatish man etildi Malik Nabiyeв "Butifos"ning insonlarni salomatligiga ziyon yetkazishini isbot qilibgina qolmay, uning o'rnini qoplaydigan zaharsiz kimyoviy modda "SAKS", "UDM", "Sihat", "Sadaf", "Sardor", "Super XMD", "O'zDEF" defoliantlarini kashf etib, paxta bargini to'ktirishda qo'llash uslublarini ishlab chiqib, qishloq xo'jaligida katta ijobiy yo'nalishni ta'minlab berdi. 1991-yildan boshlab, har yili 2 ming tonnadan 8 ming tonnagacha "Sihat" defolianti ishlab chiqarilib, respublikaning barcha paxta ekinzorlarida keng qo'llanilgan⁶⁹.

1971–1980-yillar davomida tamoman yangi ilmiy tadqiqot yo'nalishi: kimyoviy mahsulotlar sintezi uchun past haroratli plazmadan foydalanish sohasi jadal rivojlandi. Shuningdek, radiatsion kimyo, lazerlardan foydalanish, texnologik jarayonlarni matematik modellash, yangi katalizatorlar yaratish kabi sohalardagi ishlanmalar katta qiziqish uyg'otdi. Besh yil ichida 3000 dan ortiq turdagi yangi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi⁷⁰. ToshDUning "Sintetik polimerlar kimyosi" kafedrasini "Yuqori molekulali birikmalar kimyosi" kafedrasini bilan birlashtirib, "Sintetik polimerlar va yuqori molekulali birikmalar kimyosi" kafedrasini tashkil etildi⁷¹. O'zbekistonlik kimyogarlar polimerlar ilmini rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. Bu hissaning e'tirofi sifatida 1979-yilda O'zSSR FA tizimida Polimerlar kimyosi bo'limi tashkil etildi. 1981-yilda u Polimerlar kimyosi va fizikasi institutiga aylantirildi. Institut xodimlari ikki asosiy yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar: "Tibbiyot va biologiya uchun polimerlar" hamda "Polimer kompozitsion materiallar"⁷². Ba'zi tadqiqotlar O'zSSR Fanlar akademiyasining kimyo

⁶⁶ Набиев.М. Решение майского Пленума ЦК КПСС – программа ближайших работ химиков республики // Узбекский химический журнал. – №4. 1958. – С. 5-8.

⁶⁷ Юнусов С. Ордена трудового красного знамени институт химии растительных веществ. – Ташкент, 1973. – С.3.

⁶⁸ Аскарлов И. Ўзбекистон кимёгар олимлари. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2014. – Б. 16.

⁶⁹ Аскарлов.И. Ўзбекистон кимёгар олимлари. – Тошкент: "Фан ва технологиялар", 2014. – Б. 21.

⁷⁰ Костанов А.Химическая промышленность на новом этапе развития. //Химическая промышленность, 1976. – №2. – С.64.

⁷¹ О'зМА. R-2653-fond, 1-ro'yxat, 5915- yig'ma jild, 1- varaq.

⁷² Рашидова С. Достижения института химии и физики полимеров ан узССР за годы XI пятилетки и перспективы научных исследований на XII пятилетку // Узбекский химический журнал. – №5. 1985. – С.29-33.

instituti va Toshkent politexnika instituti bilan hamkorlikda olib borilgan. Shunga qaramay, birlashmada ko‘plab ma‘naviy jihatdan eskirgan uskunalar, ayniqsa, metallni kesuvchi stanoklar, nasoslar, kompressorlar mavjud bo‘lgan. Avtomatlashtirilgan texnik boshqaruv tizimlari yetarlicha joriy qilinmagan va respublika fanining potentsiali bu sohada to‘liq ishlatilmagan⁷³.

1960-yil 15-mart SSSR KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Vazirlar Soveti 1960-yil 20-yanvardagi № 86-sonli qarorida ammiak, karbamid (mochevina), murakkab va aralash mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishni joriy yetti yillikda rivojlantirish masalasini muhokama qilgan holda ushbu mahsulotlarning qishloq xo‘jaligi, sanoat va qurilish uchun muhim ahamiyatga egaligini alohida ta‘kidlashgan⁷⁴. Unga ko‘ra, quyidagi korxonalar Chirchiq elektroximiya kombinatida sintetik ammiak va karbamid, Farg‘ona azot o‘g‘itlari zavodida sintetik ammiak ishlab chiqarish, Navoiy kimyo kombinatida ammiak va murakkab o‘g‘itlar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishi belgilandi⁷⁵. 1965-yilga borib respublikada paxta yetishtirishni 3 million 800 ming tonnaga yetkazish rejalashtirildi. Buning uchun mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi sanoatni keskin yuksaltirish talab qilindi. Tabiiy gazdan kompleks foydalanish sintetik materiallar ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bir vaqtda, bu vazifani ham muvaffaqiyatli hal qilishga imkon berdi. Respublikada mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish yetti yil ichida ikki baravardan ko‘proq ortdi⁷⁶. Natijada, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi qator korxonalar tashkil etildi va mavjudlari qayta ta‘mirlandi.

Ikkinchi jaxon urushidan keyin kimyo sanoati korxonalari keng ko‘lamda qurildi va mavjudlari qayta ta‘mirlandi. Respublika xalq xo‘jaligining iqtisodiy o‘sishi ko‘proq og‘ir sanoatga to‘g‘ri keldi. Og‘ir kimyo sanoat korxonasi (Chorjo‘y, Olmaliq, Chirchiq, Jizzax, Toshkent, Navoiy, Samarqand) hududlarida joylashdi. Butun Sovet Ittifoqi bo‘yicha 30 dan ortiq og‘ir kimyo sanoati faoliyat yuritgan bo‘lsa, shundan 22 ta og‘ir sanoat majmualari O‘zbekistonda joylashdi⁷⁷. 1949-yildan 1956-yilgacha pestitsidlardan foydalanish yillik miqdori 30 ming tonnadan 300 ming tonnagacha, ya‘ni taxminan 10 barobar oshgan. Keyingi o‘n yilliklarda ham bu o‘shish davom etdi va 1980-yillar boshida yillik ko‘rsatkich 500 ming tonnadan ortiq bo‘ldi⁷⁸. 1955-yilda “katta kimyo” sohasiga burilish ro‘y berdi va bu yo‘nalish 1958-yil may oyida bo‘lib o‘tgan KPSS Markaziy Qo‘mitasi Plenumi qarorlari bilan mustahkamlandi. Bu Plenum to‘liq kimyo sanoati masalalariga bag‘ishlangan edi. Shu yillarda kimyo, metallurgiya, aviatsiya texnikasi va raketa qurilishi sohalarida ham sifat jihatidan yangi yo‘nalishlar

⁷³ Умурзакова Р. Развитие химической промышленности в Узбекистане в период 70-х – 80-х годов (история, опыт, проблемы). Дисс.Канд. ист.наук. – Т., 1994. – С. 54.

⁷⁴ О‘зМА. R-837-fond, R-39. 398-yig‘ma jild, 1- varaq.

⁷⁵ О‘зМА. R-837-fond, R-39. 398-yig‘ma jild, 2-3- varaq.

⁷⁶ Десятчиков Б. Абубакиров Н. Кимё саноатини жадал ривожлантириш умумхалқ иши. – Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ўзбекистон Сурх”. 1960. – Б. 38.

⁷⁷ Аскарлов Ш.М. Из опыта решения социально-экономических проблем на предприятиях химической промышленности в 80-е годы. Историко-партийный аспект проблемы (на материалах республик Средней Азии). Автореф ... дисс. канд. истор. наук. – Москва: 1991. – С. 20.

⁷⁸ Marin Coudreau. Soviet Plans, Capitalist Chemistry: Khimizatsiya and the estern Pesticide Companies in the Age of Poisons. Global Environment 17 (2024).© The Author. Open Access (CC BY 4.0)* doi: 0.3828/whpge.63837646622489. – P.204.

shakllana boshladi⁷⁹. SSSR milliy xo‘jaligini 1966–1970-yillarda rivojlantirishga oid direktivalar (1966-yil 8-aprelda)iga ko‘ra, Chirchiq elektroximiya kombinatini yanada modernizatsiya qilish, Samarqand va Qo‘qon superfosfat zavodlarida fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmini oshirish rejalashtirilgan edi. Farg‘ona va Navoiyda yirik azotli o‘g‘it ishlab chiqaruvchi kombinatlarni qurish rejalashtirilgan. Natijada, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish ikki barobardan ortiq oshishi kerak edi⁸⁰. 1950–1960-yillarda Samarqand superfosfat zavodi ishga tushirildi. Farg‘ona azot o‘g‘itlari zavodi (1962 y.), Navoiy kimyo kombinati (1965 y.)⁸¹ 1964-yili Farg‘onada sun‘iy tola zavodining qurilishi boshlandi⁸². Bundan tashqari, Qo‘qon va Samarqanddagi superfosfat zavodlarining quvvatini oshirish tadbirlari amalga oshirildi.

Qo‘qon superfosfat zavodi butunlay ammoniylashtirilgan superfosfat ishlab chiqarishga ko‘chirildi. Samarqanddagi zavod esa granulali donador superfosfat ishlab chiqara boshladi⁸³. 1965-yilda respublikada ishlab chiqariladigan azotli o‘g‘itlar miqdori Markaziy Osiyoning barcha paxta ekuvchi respublikalarining ularga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qoplaydi⁸⁴. Samarqand superfosfat zavodi qurilishining kolxozlar superfosfatni Moskva yaqinidagi Voskresensk kimyo kombinatidan olib kelishni to‘xtatar edi. SSSRda ilk bor Samarqand zavodida binolar qurmasdan turib, kontakt usulida sernokislota olish sexi barpo etildi⁸⁵. Sexni ishga tushirish ilk kunlardan oq qiyinchiliklarga duch keldi. Masalan, loyihada ayrim mexanizmlar ekspluatatsiyasi tajribasi yetarlicha hisobga olinmagan, ba’zi hollarda Giproxim ayrim apparatlarning hisob-kitoblarini juda sodda bajargan, ayrim hollarda esa uskunalarining texnik ekspluatatsiya qoidalari hamda texnologik rejim me‘yorlari buzilgan⁸⁶. Samarqand superfosfat zavodi 1954-yilda ishga tushgan edi. Ammo oradan to‘rt yil ham o‘tmay, uni qayta qurish (rekonstruksiya) boshlandi. Turli qayta tuzish va o‘zgartirish ishlari qariyb o‘n yildan ziyod davom etdi⁸⁷. 1965-yilda rekonstruksiya qilinib, ishlab chiqarish quvvatlari ikki marta oshirildi⁸⁸. Ammo, matubotda e‘lon qilingan ushbu ma‘lumotlarni arxiv hujjatlari inkor qiladi. 1965-yilda zavod qoniqarsiz ishlaydi, sulfat kislota va fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish rejasini bajarmaydi⁸⁹.

Navoiy kimyo kombinati qurilishining loyihasi 1960-yilning 12-martida SSSR Ministrlar Soveti tomonidan tasdiqlandi. Dastlabki loyihasiga ko‘ra, kombinat tarkibida ammiak, kuchsiz azot kislotalari, ammiak selitrasi ishlab chiqarishga moslashgan sexlar bo‘lishi nazarda tutilgan edi. Kombinatsion qurilishi 1961-yilning

⁷⁹ Лельчук В.С. Индустриализация СССР: история,опыт,проблемы. – М., Издательство политической литературы. 1984. – С. 296.

⁸⁰ Багдасаров В. Из истории индустриального развития Узбекистана (1959-1965 гг.). – Ташкент: Фан .1972. – С.21.

⁸¹ Izoh: Vaqt o‘tishi bilan bu korxonalarning nomlari o‘zgarib turdi.

⁸² Десятчиков Б., Абубакиров Н. Кимё саноатини жадал ривожлантириш умумхалқ иши. – Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ўзбекистон Сурх”. 1960. – Б. 9.

⁸³ Десятчиков Б., Абубакиров Н. Кимё саноатини жадал ривожлантириш умумхалқ иши. –Т.: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ўзбекистон Сурх”. 1960. – Б. 40.

⁸⁴ Ерофеев В. По пути технического прогресса (Самаркандский суперфосфатный завод). – Ташкент, 1960. – С. 3-4.

⁸⁵ Ерофеев В. По пути технического прогресса (Самаркандский суперфосфатный завод). – Ташкент, 1960. – С. 7-8.

⁸⁶ Ерофеев В. По пути технического прогресса (Самаркандский суперфосфатный завод). – Ташкент, 1960. – С. 10.

⁸⁷ Велюнский В. Михайлов А. Бедя одного завода // Экономика и жизнь. 03.03.1968. – С.12-14.

⁸⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqand_kimyo_zavodi

⁸⁹ О‘зМА, R-2600-fond, 1-ro‘yxat, 9- yig‘ma jild, 7- varaq.

ikkinchi kvartalida boshlandi. Boshqarma boshlig'i Anatoliy Lyamin va bosh muhandis Sergey Pankratov edi⁹⁰. Zavodni qurish maqsadida, yordamchi ishlab chiqarish obyektlari qurish SSSR O'rta mashinasozlik vazirligining 245- sonli bosh pudratchisiga topshirildi⁹¹. 1965-yilda mahsulot ishlab chiqarishning 1964-yilga nisbatan 27,33% ga oshishi – bu Farg'ona azot o'g'itlari zavodi va Navoiy kimyo kombinatida 1964-yilda ishga tushirilgan quvvatlarni o'zlashtirish va ishga tushirish hisobiga mineral o'g'itlar ishlab chiqarishning sezilarli darajada o'sishi bilan izohlanadi⁹². Ammo, 1965-yil uchun belgilangan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejasi to'liq bajarilmadi. Chirchiq elektroximiya kombinatida uglekisliyin svinets sexi foydalanishga topshirilmadi. GILP-Z katalizator ishlab chiqarish sexi va quruq muz (suxoy lyod) sexi to'liq quvvatida ishga tushirilmadi. Bu holat quyidagilar bilan izohlanadi: Loyiha hujjatlarining sifati past bo'lishi, qurilayotgan obyektlarga yetkazib berilgan texnologik uskunalardagi nuqsonlar, import uskunalarining reja bo'yicha belgilangan muddatlarda yetkazib berilmasligi⁹³ kuzatildi.

Kimyo sanoatining jadal rivojlanishi 1970–80-yillarda ham davom etdi. 1971–1980- yillarda respublika ximiya sanoatida 1,6 milliard so'm kapital mablag' o'zlashtirildi. Shu davr ichida ximiya kompleksi yalpi mahsulot hajmi 2,5 marta, asosiy fondlari 2,79 marta, xodimlari soni 2 marta ko'paydi. Mehnat unumdorligi 23 protsent, fond bilan qurollanish 37 protsent o'sdi. Bunga agregatlarni yiriklashtirish, yuqori unumli mashinalarni joriy etish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, ishlab chiqarish va boshqalarni yaxshilash evaziga erishildi. Biroq kaprolaktam, ammoniy sulfat, azot, fosfor kislotalari, ammofos, triatsetat va shu kabilar ni ishlab chiqarishga mansub yirik quvvatlarni to'la ishga tushirilmaganligi natijasida o'n yil ichida fond qaytimi 10 protsentga kamaydi va fond sig'imi 11 protsent ko'paydi⁹⁴.

SSSR Kimyo sanoati vazirligining 1988 -yil 16- avgustdagi 517-sonli buyrug'iga asosan, Chust shahri yaqinida joylashadigan Namangan kimyo zavodining ikkinchi navbati qurilishi belgilandi⁹⁵. 1988- yilda SSSR Kimyo sanoati vazirining topshirig'iga asosan, Namangan shahri yaqinidagi Chust tumanida Namangan kimyo zavodini kengaytirish uchun maydon tanlash bo'yicha komissiya tuziladi va yiliga 60 ming tonna texnik karboksimetilsellyuloza, 30 ming tonna tozalangan karboksimetilsellyuloza va 40 ming tonna paxta sellulozasi ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonalarni tashkil etish rejalashtirildi⁹⁶. 1971-yilda O'zbekistonda navbatdagi gigant kimyo korxonasini Navoiy elektrokimyoni qurishni rejalashtirdi⁹⁷. Zavodi O'rta Osiyo mintaqasi va SSSRning boshqa respublikalari uchun kimyoviy o'simliklarni himoya qilish vositalari insektoakaritsidlar, gerbitsidlar, fungitsidlar ishlab chiqarish maqsadida 1971-yilda Ximiya sanoati vazirligining 1971-yil 12-dekabrdagi buyrug'i (A.Kostandov imzolagan) bilan tashkil etilgan.⁹⁸ Navoiy elektrokimyo zavodi Kimyo

⁹⁰ Ветштейн Л. Мы-Навоийский химик!//Знамя дружба. 17.08.1988й.

⁹¹ Navoiy VDA. SH -172-fond. 1-ro'yxat, 32-yig'ma jild, 2-varaq.

⁹² O'zMA, R-2600-fond, 1-ro'yxat, 9- yig'ma jild, 87- varaq

⁹³ O'zMA. , R-2600-fond, 1-ro'yxat, 1- yig'ma jild, 88-varaq.

⁹⁴ Азимов М., Салимова Э., Азимов М. Ўзбекистонда химия санаотининг ривожланиши ва ижтимоий ишлаб чиқаришни жадаллаштириш. – Т., 1986. – Б. 10.

⁹⁵ O'zMA. R-837-fond, 14-ro'yxat, 7580-yig'ma jild, 28-varaq.

⁹⁶ O'zMA. R-837-fond, 14-ro'yxat, 7580-yig'ma jild, 34-varaq.

⁹⁷ Ильичев.Г. Рождается новый гигант //Навоийский химик. 1971 г. 19 феврал.

⁹⁸ Электрокимёзавод СП, ЗАО. <https://nexz-uz.all.biz>

vazirligi tarkibidagi “SOYUZXLOR” Butunrossiya birlashgan xlor sanoatiga bo‘ysundi⁹⁹. SSSR miqyosida ayrim respublikalarda, o‘lkalar va viloyatlarda yengil sanoatga yetarlicha e’tibor berilmayotgani sababli, 70- yillarning o‘zidayoq kimyoviy tola, paxta va junni qayta ishlashda muayyan qiyinchiliklar paydo bo‘ldi¹⁰⁰. Xulosa qilib aytganda bu davrda respublikada gigant korxonalarni vujudga kelishi ijobiy jarayon bo‘lsa-da, reja ortidan quvish jarayonida korxonalar faoliyati kutilgan natijani bermagan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Kimyo sanoati ishlab chiqarish jarayonlariga siyosiy-ijtimoiy ta’sirning kuchayishi”** deb nomlanadi. Kimyo sanoati korxonalari faoliyatiga mafkuraviy va siyosiy bosimning ortishi natijasida ishlab chiqarishning susayishi va kadrlar norozilik harakatlarining sodir bo‘lganligi yozilgan. Rejalar ortidan quvish O‘zbekiston sanoat qurilishida avval boshidan yo‘l qo‘yilgan edi. Chirchiqqurilish ishlarida buni ko‘rish mumkin. Partiya quruvchilar oldiga aniq vazifa qo‘ydi: mamlakatga paxta kerak, uni yetishtirish uchun esa o‘g‘it zarur. Ammo, loyihadagi kamchiliklar sabab, qurilish muddatlari kechikkan. Natijada, 1937–1938-yillarda sodir etilgan mudhish “katta terror” Chirchiqqurilishdagi bir qancha rahbar xodimlar, taniqli ishchi- xizmatchilarni chetlab o‘tmadi. 1937-yil yanvarida Chirchiqqurilishning bosh muhandisi D.P.Rozit qamoqqa olindi. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi qarori bilan 1937-yil 1-iyulda u oliy jazoga hukm etildi. Ma’lum vaqt o‘tgach Konstantin Alekseyevich Drennov ham hibsga olindi. K.A.Drennov esa turmadan V.M.Molotovga bir necha bor xatlar yuborgan, o‘zining va Rozitning pok nomini tiklashga urinib ko‘rgan. Ammo K.A.Drennov 1941-yili qamoqdaligida halok bo‘ldi. 1957-yili u reabilitatsiya qilindi¹⁰¹. Besh yillik rejalarini o‘sha davr sharoitida Fayzulla Xo‘jayev jur‘at bilan keskin ravishda tanqid qilgan.

O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo‘jayev 1927-yil aprel oyida VKP(b) MK kotibi va VKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi birinchi kotibi I.A.Zelenskiy nomiga yuborgan xatida shunday deb yozgan edi: “Besh yillik rejasi xayolparastlik bilan tuzilgan. Bu reja na imkoniyatlarimiz darajasiga, na bizning ixtiyorimizdagi vositalarimiz talabi va ko‘lamga mos emas”.¹⁰² Rejalar ortidan quvish O‘zbekiston sanoat qurilishida avval boshidan yo‘l qo‘yilgan edi. Masalan, 1940-yil 4-aprelda V. Kazmishev rahbarligidagi suvoqchilar brigadasi bir smenalik vazifani 978 foizga bajardi. O‘sha yillarda mahalliy samosvallar yetarlicha ishlab chiqarilmas edi va qurilish ulardan deyarli ololmas edi. Chirchiqstroy transportchilari samosvallarni o‘zlari yasadilar. Ular ZIS-5 yuk mashinalari shassisiga yog‘ochdan yasalgan ag‘darma kuzovlar o‘rnatdilar¹⁰³.Korxonalaridagi rejalar ortidan quvish natijasida 1980-yillarda ishlab chiqarish tizimli inqirozga uchray boshladi. 1972-yil natijalari achinarli bo‘lib, navoiylik kimyogarlarni davlatdan qarzi katta edi. Zavod biror turdagi mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajara olmagan. O‘rta Osiyo respublikalari va RSFRning qator viloyatlarining kolxoz va savxozlari 200 ming tonnadan ortiq

⁹⁹ Navoiy VDA. SH-177-fond, 1-ro‘yxat, 934-yig‘ma jild, 21-varaq

¹⁰⁰ Химия и развитие легкой промышленности/// Партийная жизнь//1964. – №3. – С. 8-15.

¹⁰¹ Шамсутдинов Р., Балтабаева К., Тўйчибоев Х., Маҳкамов А., Иминов Ж. Чирчиққурилиш катағони // Водийнома. 2023. – №1 (28). – Б. 48-70.

¹⁰² Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. – Ташкент: Фан. 2024. – Б. 639.

¹⁰³ Бадридинов С. Вклад трудящихся в развитие химической промышленности узбекистана (1971-1980 гг.). дисс.канд.ист.наук. – Ташкент., 1988. – С.185.

ammiakli selitrani olmagan, sanoatga 6438 tonna sun'iy tola va 4500 tonna sirka kislotasi berilmagan. Yillik mahsulot sotishdagi farq 20 million rubldan ortiqni tashkil etdi¹⁰⁴. Mexanizatsiyalashgan konveyerlar va avtomatlashtirilgan liniyalar soni bo'yicha respublika kimyo sanoati sanoat tarmoqlari orasida eng oxirgi o'rinda turar edi (1971- yilda umuman yo'q edi, 1975-yilda 2 ta, 1981-yilda 3 ta). 1970-yillarda sohaga kompleks mexanizatsiyalashgan yoki avtomatlashtirilgan biror-bir korxona kiritilmagan¹⁰⁵. 1980-yillarda Namangan kimyo korxonasida ham holat yaxshi emas edi. Namangan kimyo zavodi go'yo qamal holatida qolgandek bo'ldi. Shartnoma bo'yicha yetkazib berilishi kerak bo'lgan mahsulot karboksimetilsellyuloza (KMS) ishlab chiqarishni o'z vaqtida bajara olmadi¹⁰⁶.

1931-yilda mavjud bo'lgan mehnat birjasi zamirida kadrlar boshqarmasi tuzilgan edi. Kadrlar boshqarmasining asosiy vazifasi ishchilar sinfini tashkiliy ravishda ishchi kuchi bilan ta'minlab turish edi. Ishchilarni uyushgan holda ishga qabul qilish aslida shu davrdan boshlangan edi¹⁰⁷. Urush yillarida yoshlarni operator, mashinist, prorabchi, laborant, mexanizator kasblariga o'rgatish maqsadida Bo'zsuv qishlog'ida zavod maktabi ochildi FZO (Fabrika-zavod ta'limi). Yoshlar zavodga kelgach, tajribali kadrlarga shogird tushib ish boshladi. Shu tariqa urush yillarida zavodning ishchilarga bo'lgan yirik talabi to'ldirilib borildi¹⁰⁸. Respublika partiya tashkiloti mahalliy millat vakillaridan bo'lgan ayol kadrlar tayyorlashga ham katta e'tibor berdi. 1949-yil oxiriga kelib, O'zbekiston sanoatidagi ishchilarning 10 foizi ayollar bo'lgan. Shu yillarda sanoat xodimlarining soni va sifati ortishi O'zbekistonda boshqa ittifoqdosh respublikalarga ham ishchi kadrlar bilan yordam berish imkonini berdi. 1948–1950-yillar orasida O'zbekistondan boshqa ittifoq respublikalariga 22 mingdan ortiq ishchi yuborilgan, ularning 19 ming nafari RSFSRga jo'natilgan¹⁰⁹.

Kimyo korxonalarini kadrlar bilan ta'minlashda ham ijtimoiy –siyosiy munosabat yetakchi bo'ldi. Milliy noteng munosabatlar natijasida – 1991-yil Navoiyazot ishchilari ijtimoiy masalalar tengsizligiga uchradi. Birlashma tashkil topgan yillarda 1,5-2 ming nafar ishchi ishlagan bo'lsa, 1990-yillarda 10 ming 134 nafar turli kasbdagi kimyogarlar faoliyat olib bordi. Ular 53 millat va elatga mansub kishilardir. Ularning 3/1 qismini mahalliy millat vakillaridan iborat. Shu davrda korxonada 10 000 dan ortiq ishchining 60% (5241nafar)ni xotin-qizlar tashkil qilgan¹¹⁰. 1991-yil 3-6-iyunda “Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasi boshqarma idorasi o'tish joyida tortishuv kelib chiqadi. Uning natijasida bir necha kun ruxsat etilmagan miting bo'lib, unda turli tartibsizliklar sodir etiladi. Oqibatda ishlab chiqarish to'xtab qoldi. Bu korxona mehnat jamoasiga ham, respublika va shaharga ham katta zarar yetkazdi. Jamoat tartibini buzish shaharda alohida shaxslar tomonidan bezorilik ko'rinishida sodir etildi. Huquq tartibot organlari aybdorlarni ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortdi. Bu voqeani

¹⁰⁴С собрания партийно – химики Навои в долгу перед родиной. (из доклада директора комбината Б.А.Плотникова) Навоийский химик. 09.02.1973 г.

¹⁰⁵ Бадридинов с. вклад трудящихся в развитие химической промышленности узбекистана (1971-1980 гг.). дисс.канд.ист.наук. – Ташкент., 1988. – С.190.

¹⁰⁶ Без вины виноватые (Узтаг) // Правда востока. 22.08.1989г

¹⁰⁷ Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силижишлар. – Ташкент: Фан, 1974. – Б. 141.

¹⁰⁸ Кадыров В. Становление химии в Республике Узбекистон. – Ташкент, 1995. – С.36.

¹⁰⁹ Саттаров И. Из истории подготовки промышленных кадров в Узбекистане (1945-1950) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – №1. 1976 г. – С.65-67.

¹¹⁰ Данилова М. (бирлашма парт.қўм. кот.)Қудратли дўстлик рамзи // Новойский химик. 01.02.1991.

oldini olish maqsadida 7-iyun kuni kechqurun O'zbekiston SSRining Prezidenti I.Karimov Navoiyga keldi. Shu kuni birlashmada bo'ldi. Mehnatkashlar jamoalari bilan uchrashdi. Ularning savollariga bevosita javob berdi. 8-iyun kuni O'zbekiston SSRning Prezidenti I.Karimov shahar atrofidagi qishloq xo'jaliklariga chiqdi va mahalliy aholi bilan uchrashdi. Sodir bo'lgan mojaroni o'rganish yuzasidan Prezident komissiyasi tuzildi 13 kishi hibsga olindi va ularning harakatlari yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atildi. Shuningdek, komissiya aholining murojaatlarini o'rgandi¹¹¹. Prezident I.Karimov xalq vakillari bilan uchrashuv chog'ida korxona vakillaridan 43 kishi so'zga chiqdi va Prezidentga savol bilan murojaat qildi¹¹².

Kimyo korxonalari ishchilari uchun barcha hududlarda kadrlarning yashashi va oilasi uchun shaharchalar qurildi. Shaharchalar qurilishida asosan quyidagicha: sanoat rayoni, turar-joy zonasi, tez harakatlanuvchi avtomagistral (yo'l), temir yo'l, daryo,¹¹³ ko'kalamzorlashtirilgan hududlar, jamoat markazlari, sanoat qismi turar-joy hududidan 5-6 km masofada joylashtirilgan bo'lishi lozim edi¹¹⁴. Xuddi shu tamoyillar asosida Chirchiq, Navoiy, Samarqandda "kimyogarlari shaharchasi" qurildi. O'zbekiston SSR aholisining soni 1989-yilning 12-yanvarida 19 mln 905 mingni tashkil etdi. Aholi 1979-yilga nisbatan 4 mln 514 ming kishi yoki 29,3 % ko'paydi. Kimyo sanoatining rivojlanishi aholi demografiyasi, ijtimoiy-madaniy hayoti va urbanizatsiyalashuvida o'z ta'sirini o'tkazdi. Albatta, ma'lum korxonaning barpo etilishida unda faoliyat olib boradigan asosiy kapital hisoblangan kadrlarga yaratilgan qulaylik va sharoitlar bosh loyihaga kiritilgan¹¹⁵.

Chirchiq O'zbekistondagi ilk sotsialistik shaharlardan biri bo'lib, u Chirchiq GESlari kaskadi va Elektroximiya kombinati qurilishi bilan birga rivojlandi. 1934-yilda tashkil etilgan bu shahar Yuqori Sotsgorod, Quyi Sotsgorod, Bozsu, Quyi Komsomol mahallasi kabi ishchi posyolkalarni birlashtirgan. Shahar Toshkentning shimolida joylashgan¹¹⁶. Chirchiq hududidagi sanoat shahrining joylashuvi va rejasi: Narkomtyajprom (Og'ir sanoat xalq komissariati), O'zbekiston SSR Parkomzdrav (Sog'liqni saqlash xalq komissariati) va "Chirchiqstroy" boshqarmasi tomonidan sotsialistik shaharning joylashishi Chirchiq daryosining poymasidan 70 metr balandlikdagi tepalik qismida belgilab olingan. Bu yerda aholi uylari, ijtimoiy-maishiy va madaniy inshootlar joylashadi, pastlik (dolina) qismida esa yordamchi korxonalar bo'ladi. Qiyaliklar va jarlar mavjudligi tufayli butun shaharni go'zal landshaftli shaklda bezatish imkoniyati mavjud¹¹⁷ bo'lgan.

